

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

**IJTIMOIIY GIGIENA VA SOG‘LIQNI SAQLASHNI
BOSHQARISH KAFEDRASI**

**SAPIOXUNOVA XILOLA MO‘MINOVNA
XAKIMOVA XONBUVI XAKIMOVNA
CHIFTCHI ZEMFIRA ANVAROVNA**

Bilim sohasi - ijtimoiy ta‘minot va sog‘liqni saqlash - 900000

Ta‘limsohasi - Sog‘liqni saqlash-910000

“MARKETING va MENEJMENT” fanidan

o‘quv qo‘llanma

Davolash - 60910200

Pediatriya - 60910300

Tibbiy profilaktika -60910400

Andijon 2025

Mualliflar:

- 1. Sapioxunova Xilola Mo`minovna - ADTI Ijtimoiy gigiena va sog`liqni saqlashni boshqarish kafedrası katta o`qituvchisi***
- 2. Xakimova Xonbuvi Xakimovna - SamDTU Jamoat salomatligi va sog`liqni saqlash menejmenti kafedrası katta o`qituvchi***
- 3. Chiftchi Zemfira Anvarovna - ADTI Ijtimoiy gigiena va sog`liqni saqlashni boshqarish kafedrası assistenti***

Taqrizchilar:

O.B.Yusupova - Urganch davlat tibbiyot instituti Jamoat salomatligi va umumiy gigiena kafedrası, t.f.n., dotsent

M.X.Saileva - Andijon davlat tibbiyot instituti Proventiv tibbiyot asoslari kafedrası mudiri, t.f.n., dotsenti

Annotatsiya

O'quv qo'llanmada "Marketing va Menejment" fanining mazmuni, maqsadi va asosiy tushunchalarini talabalarga chuqur o'rgatish uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanmada marketing faoliyatining nazariy asoslari, bozorni o'rganish usullari, iste'molchilar xulq-atvori, mahsulot, narx, taqsimot va kommunikatsiya siyosati masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, menejmentning mohiyati, boshqaruv funksiyalari, rahbarlik uslublari, tashkiliy tuzilmalar, motivatsiya va nazorat jarayonlari haqida ham batafsil ma'lumotlar berilgan. O'quv qo'llanma zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda nazariy bilimlarni amaliy misollar, tahlillar va topshiriqlar bilan mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Annotatsiya

Учебник предназначен для углубленного изучения студентами содержания, целей и основных понятий предмета «Маркетинг и менеджмент». В учебнике рассматриваются теоретические основы маркетинговой деятельности, методы маркетинговых исследований, поведение потребителей, товарная, ценовая, сбытовая и коммуникационная политика. В учебнике также подробно рассматриваются сущность менеджмента, функции управления, стили руководства, организационные структуры, мотивация и процессы контроля. Учебник разработан с учетом требований современной рыночной экономики, особое внимание уделяется закреплению теоретических знаний практическими примерами, анализами и практическими заданиями.

Annotation

The textbook is designed to provide students with an in-depth understanding of the content, goals, and basic concepts of the subject "Marketing and Management". The textbook covers the theoretical foundations of marketing activities, market research methods, consumer behavior, product, price, distribution, and communication policy. It also provides detailed information about the essence of management, management functions, leadership styles, organizational structures, motivation, and control processes. The textbook was developed based on the requirements of a modern market economy, and special attention is paid to reinforcing theoretical knowledge with practical examples, analyses, and assignments.

KIRISH

Mazkur fan menejmentning qonuniyatlari, qonun va tamoyillari, funksiya va vazifalari, shuningdek, menejment tizimida menejning o‘rni, madaniyati va uslubi, menejment samaradorligi va unga ta‘sir qiluvchi boshqaru-V qaredarmia-g-fflazm-uni, mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Bundan tasgqari talabalarni Sog‘liqni saqlashda marketing, Sog‘liqni saqlashga bo‘lgan talablar va marketing boshqaruvining zarurligi, Ehtiyoj talab, Tovar xizmatlar tushunchasi, Tibbiy xizmatlarga bo‘lgan bozor talablari va bozor munosabatlari haqidagi asosiy tushunchalari hamda amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash va chuqurlashtirish maqsadida barcha ixtisosliklar bo‘yicha soha shifikorlarini hamda turli ixtisosliklar bo‘yicha tibbiy profilaktika fakulteti talabalarini o‘qitishga mo‘ljallangan. Ma‘lumki har qanday faoliyat turi boshqaruv asosiga quriladi, chunki shu faoliyatni amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsadga erishish, bajariladigan vazifalarni taqsimlash, ijrosini nazorat qilish, shuningdek, samaradorlikka erishish uchun shu faoliyatda ishtirok etuvchilar manfaatlarini himoya qilish, rag‘batlantirish chora-tadbirlari boshqaruv jarayonida tashkil etiladi va muvofiqlashtiriladi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma bakalavr, magistrlar uchun mo‘ljallangan “Marketing va menejment” fani uchun tuzilgan o‘quv dasturi asosida yozildi va o‘z ichiga boshqarish tushunchasi va ta‘rifini, boshqaruv jarayonini, boshqarishning asosiy funksiyalarini, marketingni boshqarishning tarkibiga tegishli masalalarni oladi. Qo‘llanmada asosiy e‘tibor firmalarning tovar va narx siyosatini ishlab chiqishga, strategik va taktik rejalashtirish, marketingning faolligini oshirish va uni axborot texnologiyalari yordamida yanada faollashtirishga, tovarlarning raqobatbardoshligini baholash usullari va yo‘l-yo‘riqlariga qaratilgan. Qo‘llanma bakalavrlar, magistrlar, ilmiy xodimlar, oliy ta‘lim professor-o‘qituvchilariga mo‘ljallangan.

Sog'liqni saqlashda marketing. Sog'liqni saqlashga bo'lgan talablar va marketing boshqaruvining zarurligi. Ehtiyoj, talab. Tovar xizmatlar tushunchasi. Tibbiy xizmatlarga bo'lgan bozor talablari va bozor munosabatlari

Ehtiyoj - insonning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyat. Ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir. Uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tarixiy ko'rinishi talab tushunchasidir. Talab ehtiyojdan farq qilib, mustaqil iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi. Ehtiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, talab - bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir.

Ehtiyoj zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanmasa, u "xohish", "istak" bo'lib qolaveradi. Talabning bir qator muqobil variantlari mavjud bo'ladi, chunki narx o'zgarishi bilan tovarning sotib olinadigan miqdori ham o'zgaradi. Talab va taklif narxni shakllantiradi, shu bilan birga narx talab va taklif o'rtasidagi nisbatni aniqlab beradi.

Menejmentning mohiyati, maqsad va vazifalari, predmeti va izlanish uslublari, ilmining kelib chiqishi, ilmining o'ziga xos xususiyatlari, keiajakka yo'naltirilganligi, Kursning mazmuni va vazifalari.

Tibbiy profilaktika fakulteti talabalarini sog'liqni saqlashda marketing, sog'liqni saqlashga bo'lgan talablar va marketing boshqaruvining zarurligi, ehtiyoj, talab, tovar xizmatlar tushunchasi, tibbiy xizmatlarga bo'lgan bozor talablari va bozor munosabatlari haqidagi asosiy tushunchalari hamda amaliy ko'nikmalarini mustaxkamlash va chuqurlashtirish

Bozor turlari, jamoda salomatlik bozorlari hamda ehtiyoj, talab, tovar xizmatlar tushunchasi. Tibbiy xizmatlarga bo'lgan bozor talablari va bozor munosabatlari. Marketing haqida tushunchaga ega bo'lish. Sog'liqni saqlashda marketing mohiyati. Sog'liqni saqlashga bo'lgan talablar va marketing

boshqaruvining zarurligi. Ehtiyoj, talab, tovar xizmatlartushunchasi. Tibbiy xizmatlarga bo'lgan bozor talablari va bozor munosabatlari.

Talab va taklif - bozor iqtisodiyotining fundamental tushunchalari. Talab (tovarlar va xizmatlarga talab) - xaridor, iste'molchining bozorda muayyan tovarlarni, ne'matlarni sotib olish istagi; bozorga chiqqan va pul imkoniyatlari bilan ta'minlangan ehtiyojlari. Ehtiyoj pul va narx vositasida talabga aylanadi. Rasman olganda talab iste'mol kattaligi miqdoridir. Tovarlar dunyosidagi xilma-xillikka mos ravishda talab hosil bo'ladi. Masalan, oziq-ovqat tovarlari, sanoat mollari, ma'ishiy va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talablar tovarlarga talab tuzilmasini tashkil etadi. Mazmuni va harakati jihatidan haqiqiy, o'sayotgan, barqaror qondirilgan, qondirilishi kechiktirilgan, qondirilmagan, me'yordagi va boshqa talablarga bo'linadi. Har bir iste'molchining, ya'ni alohida shaxs, oila, korxonalar, firmaning biror tovar to'plamiga yoki tovarlarga bildirilgan talablari yakka talab deyiladi. Muayyan tovarga yoki tovarlar to'plamiga barcha xaridorlar bildirgan talab yig'indisi bozor talabi, barcha bozorlarda barcha tovarlarga jamiyat miqiyosida bildirilgan ijtimoiy talab yalpi talab deyiladi. Talab miqdorining o'zgarishiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Ularning o'rasida eng muhimi narx omilidir. Tovar narxining pasayishi sotib olinadigan tovar miqdorining o'sishi va aksincha, narxning o'sishi xarid miqdorining kamayishiga olib keladi. Taklif - muayyan vaqtda va muayyan narxlar bilan bozorga chiqarilgan va chiqarilishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori bilan ifoda etiladi; taklif ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)larning o'z tovarlarini sotishga (bozorga) taklif etish istagi. Bozorda tovar narxi bilan uning taklifi miqdori o'rtasqda bevosita bog'liqlik mavjud: narx qanchalik yuqori bo'lsa, boshqa sharoitlar o'zgarmagan hollarda, sotish uchun shuncha ko'proq tovar taklif etiladi, yoki aksincha, narx pasayishi bilan taklif hajmi qisqaradi. Masalan, 10 so'm narxda 3 tovar birligi taklif etiladi, agar narx 15 so'mga ko'tarilsa, taklif hajmi 5 birlikka qadar ko'payadi, agar narx 20 so'mga yetsa, taklif hajmi 6 birlikka yetadi. Shunday qilib, taklif miqdorining o'zgarishlari taklif egri chizig'ida bir nuqtadan ikkinchisiga ko'chishida o'z ifodasini topadi. Egri chiziqning ijobiy og'ishi tovar narxi bilan uning taklifi miqdori o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni aks ettiradi.

Tovar taklifiga, tovarning o'z narxidan tashqari bir qator omillar: shu tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslar narxlari; qo'llaniladigan texnologiya; soliqlar va dotatsiyalar; taqchilik yoki narxlar o'zgarishlarini kutish; bozordagi sotuvchilar soni va boshqa ta'sir ko'rsatadi. Mas., resurelarning arzonlashuvi muayyan tovarni ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, bu esa uning taklifi o'sishini stimullaydi. Taklifning o'ziga ta'sir ko'rsatadigan omillar o'zgarishlariga, birinchi navbatda, narx o'zgarishlariga sezgirligi taklif elastikligi deb ataladi.

Talab va taklifning tub mazmuni ularning narx orqali o'zaro aloqadorlikda mavjud bo'lishidir. Bu aloqadorlik - talab va taklif qonuni bozor iqtisodiyotining ob'yektiv qonuni hisoblanadi. T. va t. qonuniga ko'ra bozordagi taklif va talab faqat miqdoran emas, balki o'zining tarkibi jihatidan ham bir-biriga moye kelishi kerak, shundagina bozor muvozanatiga erishiladi. Bu qonun ayirboshlash qonuni bo'lib, bozorni boshqaruvchi va tartiblovchi kuch darajasiga ko'tariladi. Unga ko'ra bozordagi talab o'zgarishlari darhol ishlab chiqarishga yetkazilishi kerak. Bozordagi T. va t. nisbatiga qarab ishlab chiqarish sur'atlar va tuzilmasi tashkil topadi. Jamiyat bu qonundan bozor muvozanatiga aloqador omillarga ta'sir etish orkali foydalanadi.

Talab va taklif qonunning nazariy asoslari dastlab A.Marshall asarlarida ifodalab berilgan.

Ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir. Uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tarixiy ko'rinishi talab tushunchasidir. Talab ehtiyojdan farq qilib, mustaqil iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi.

Ehtiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, talab-bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir. Ehtiyoj zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanmasa, u "*xohish*", "*istak*" bo'lib qolaveradi. Talabning bir qator muqobil variantlari mavjud bo'ladi, chunki narx o'zgarishi bilan tovarning sotib olinadigan miqdori ham o'zgaradi. Shu bog'liqlikdan kelib chiqib, talabga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ma'lum vaqt oralig'ida, narxlarning

mavjud darajasida iste'molchilarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini sotib olishga qodir bo'lgan ehtiyoji.

Ma'lum vaqt oralig'idagi narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar tomonidan ma'lum turdagi tovar va xizmatlarning daromad va foyda olish maqsadida bozorga chiqarilgan miqdoriga taklif deyiladi. Narx o'zgarishi bilan sotishga chiqariladigan mahsulot miqdori ham o'zgarishi sababli talab kabi taklifning ham bir qator muqobil variantlari mavjud bo'ladi.

Taklif narxlarning turli darajasida qancha miqdordagi mahsulotning sotishga chiqarilishini ko'rsatadi. Narxning oshishi bilan shunga mos ravishda sotishga chiqariladigan tovarlar taklifi miqdori ham ortadi, narxning tushishi bilan taklif hajmi qisqaradi.

Talab tushunchasi va uning miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Talab qonuni Biz ehtiyoj tushunchasi haqida dastlabki bobda ga'irgan edik. Ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir. Uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tarixiy ko'rinishi talab tushunchasidir. Talab ehtiyojdan farq qilib, mustaqil iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi. Ehtiyojning faqat 'ul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, talab – bu 'ul bilan ta'minlangan ehtiyojdir. Ehtiyoj zarur miqdordagi 'ul bilan ta'minlanmasa, u «xohish», «istak» bo'lib qolaveradi. Talabning bir qator muqobil variantlari mavjud bo'ladi, chunki narx o'zgarishi bilan tovarning sotib olinadigan miqdori ham o'zgaradi. Shu bog'liqlikdan kelib chiqib, talabga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ma'lum vaqt oralig'ida, narxlarning mavjud darajasida iste'molchilarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini sotib olishga qodir bo'lgan ehtiyoji talab deyiladi. Boshqacha qilib aytganda talab bilan ta'minlangan ehtiyojdir.


Talablar turlicha bo'lib, odatda bir xil tovar yoki xizmatlarga bo'lgan talabning ikki turi farq qilinadi: yakka talab va bozor talabi. Har bir iste'molchining, ya'ni alohida shaxs, oila, korxon, firmaning tovarning shu turiga bo'lgan talabi

yakka talab deyiladi. Bir qancha (ko''chilik) iste'molchilarning shu turdagi tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yig'indisi bozor talabi deyiladi.

Hozirda iqtisodiy adabiyotlarda talabning turli ko'rinishlari ajratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish omillariga talab (ishlab chiqarish talabi) va iste'mol buyumlariga talab (aholi talabi) farqlanadi.

Shuningdek, haqiqiy (tovar va xizmatlarga haqiqatda namoyon bo'luvchi), qondirilgan (haqiqiy talabning bozorda tovar va xizmat sotib olish orqali qondirilgan qismi) va qondirilmagan (haqiqiy talabning bozorda zarur tovarlarning yo'qligi yoki ular assortimenti va sifatining xaridor talabiga javob bermasligi sababli qondirilmagan qismi) talablar farqlanadi. Qondirilmagan talab turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: yashirin, joriy, harakatchan, to''langan talab.

Tovarga bo'lgan talab ko''lab omillar, masalan, reklamadan foydalanish, moda va didlar, afzal ko'rish, atrof-muhit, tovarlarni qo'lga kiritish imkoniyati, daromad miqdori, naflilik, o'zaro o'rinbosar tovarlar narxi, aholi soni, kelgusidagi narxlarning o'zgarishi va boshqalarning ta'sirida o'zgarishi mumkin. Shunga ko'ra, ekzogen va endogen talab farqlanadi. Ekzogen talab – bu davlat yoki erkin bozor tizimidan tashqaridagi qandaydir kuchning aralashuvi natijasida o'zgargan talab. Endogen yoki ichki talab – bu jamiyatda mavjud bo'lgan omillar ta'sirida jamiyat ichida tarkib to'gan talab.



Tibbiy mahsulotlarning jahon bozori doimiy ravishda o'sib va rivojlanib bormoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining axborotiga ko'ra, 2000-yilda jahon bozoriga taqdim etilgan 1,5 mln turli xil tibbiyot mahsulotlarining qiymati 145 mlrd. dollardan ortiqni, 2002- yilda esa 149,2 mlrd. dollardan ortiqni tashkil etgan. Dunyodagi tibbiy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi sanoat bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib qoldi, 2006-yil uchun jahon tibbiy mahsulotlar bozorimng hajmi 260 mlrd. dollar bilan baholandi. Bunda ishlab chiqariladigan tibbiy mahsulotlarning umumiy hajmida AQSH mahsulotlari 43 foizni, Yevropa iqtisodiy ittifoqi davlatlarining ulushi 26 foizni, Yaponiya ulushi 14 foizni va qolgan mamlakatlarning ulushi 17 foizni tashkil qiladi. Ayrim mamlakatlarda tibbiy mahsulotlar sektorining budjet mablag'lari tuzulmasiga ko'rsatadigan ta'siri farmatsevtika sektoriga nisbatan ortib ketadi. Kasalliklarning tashxis qilinishi, davolanishi va profilaktikasini ta'minlovchi tibbiy tovarlar jumlasiga keng nomenklaturadagi apparatlar, uskunalar, asboblari, sanitariya-gigiyena va bemorlarni parvarishlash buyumlari, reaktivlar, reagentlar, test-tizimlar va boshqalar kiritilganligi sabab, tadqiqotlarni tasniflashdan boshlash kerak. Tasniflash masalasi dolzarb bo'lib hisoblanadi, chunki u tibbiyot tovarlarining ko'p sonli nomenklaturasini tartibga solish hamda uskuna, apparat, tibbiy maqsaddagi buyumning toifasi, guruhi yoki kichik guruhini aniqlash imkonini beradi. Bojxona va davlat statistikasi olib apparat, tibbiy maqsaddagi buyumning toifasi, guruhi yoki kichik guruhini aniqlash imkonini beradi. Bojxona va davlat statistikasi olib boradigan tasniflash ko'pincha tibbiy tovarlarning maqsad-yo'nalishini identifikatsiya qilish imkonini bermaydi. Masalan, tibbiy mahsulotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda foydalaniladigan tasnif tibbiy mahsulotlarni TN VED kodlari bo'yicha gurahlanishidan keskin farq qiladi. Tasnif yaratilishi tibbiy tovarlar sohasidagi assortiment siyosatini amalga oshirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Tasniflashga kirishishdan oldin, tibbiy tovarlar toifasini tashkil etuvchi tuzulmaviy birliklarga aniq tushuncha berib o'tish zarur. Iste'mol tovarlaridan biri bo'lib hisoblanadigan tibbiyot tovarlari toifasi aholining salomatligini ta'minlash borasidagi ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan. Tibbiyot tovarlari

tibbiyotda tashxis qo'yish, davolash va profilaktika maqsadlarida foydalaniladigan ashyolar va buyumlarga ajratiladi. Ashyolar - davolash - kasallikning oldini olish jarayonida bir marta foydalanish va shundan so'ng yo'qotiladigan tibbiy tovarlar guruhidir (bog'lash, tikish ashyoiari va boshqalar). Buyumlar - bir necha marta foydalaniladigan pishiq ashyolardan tayyorlanadigan tibbiy tovarlar guruhidir. Mazkur guruhga asboblar, apparatlar, uskunalar, tibbiy maqsadlardagi buyumlar hamda in vitro tashxis buyumlari birlashtirilgan. Tibbiy buyumlar - tibbiy maqsadlarda foydalaniladigan asboblar, moslamalar, qurilmalar, apparatlar, to'plamlar, uskunalar, reagentlar, nazorat materiallari va h.k. Tibbiy buyumlar kasallikning oldini olish (profilaktika), tashxis qo'yish, kasalliklarni davolash, nogironlarning salomatligini tiklash (reabilitatsiya qilish), tibbiy muolajalarni o'tkazish va boshqalarga mo'ljallangan. Tibbiy texnika - tibbiyot amaliyotida foydalanishga mo'ljallangan tibbiy texnika buyumlari hamda tibbiy maqsadga ega bo'lgan ularning tarkibiy qismlari: uskunalar apparatlar, uskuna to'plamlari. Tibbiy asboblar - profilaktika, tashxis qo'yish, davolash, tekshirish muolajalarini o'tkazish uchun mo'ljallangan texnik vositalardir. Tibbiy asboblar, asosan, ixtisoslashtirilgan korxonalarda nomenklatura bo'yicha tayyorlanadigan eng ko'p sonli tibbiy buyumlar guruhidir. Tibbiy asboblarni ko'p miqdorda ishlab chiqarish, asboblarning turli zamonaviy assortimlarini ko'paytirish va kengaytirish yangi texnologiyalarning rivojlanishiga bog'liqdir. Tovarlarni nomenklaturasida umumiy jarrohlik va maxsus (neyrojarrohlik, oftalmologiya, abdominal jarrohlik, akusher-ginekologiya, urologiya va shu kabi) operatsiyalarga mo'ljallangan jarrohlik asboblari saim oqlari o'rin tutadi. O'zbekiston farmatsevtika bozoriga ushbu asboblar tibbiyot xodimlarining hamda aholi talablarini qondirish maqsadida asosan xorijiy mamlakatlardan olib kirilmoqda. Jahon bo'yicha juda mashhur ishlab chiqaruvchi kompaniyalardan Karl Seys (Germaniya), Kari Shtots (Germaniya), Qozon tibbiyot-instrument zavod (KMI3) (Rossiya)lari kabi ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari respublikada qayd etilgan. Tibbiy uskunalar (priborlar) - tashxis qo'yish yoki profilaktika maqsadida inson organizmining holati haqidagi olchashlar axborotini olish, to'plash va (yoki) tahlil qilish hamda aks ettirish uchun mo'ljallangan tibbiy

texnika buyumlari (1.1-rasm). Tibbiy uskunalar - bemor holatiga oid ma'lumotni olish, tashxis qo'yish yoki me'yordan og'ishlami aniqlash imkonini beradigan qurilmalardir. Uskunalar - ko'rsatuvchi, qayd etuvchi va kombinirlangan bo'ladi.



Bu bohda siz quyidagi samllarga javob topasiz: 1. Tovarlar qanday tasniflanadi? 2. Tovarlar qanday turkum va guruhlariga bo'linadi? 3. Tovarlar assortimenti va tasnifi haqida nimalami bilasiz? 4. Tovar assortimentining xususiyatlari va ko'rsatkichlari qanday? 5. Assortment turlarini sanab o'ling. 6. Tibbiyot tovarlarning qanday assortimentini bilasiz? 7. Tovarlar asosiy tavsiflarini ayting. Tayanch iboralar: Tovar, ishlab chiqaruvchi, iste'molchi, turkum, guruh, turlar, assortiment, assortiment turlari, ko'rsatkichlari: kengligi, tolaligi, chuqurligi.

2.1. Tovar, ta'rifi va tasnifi Tovar - msorming aniq ehtiyojlarini qondirish uchun iste'mol qiymatiga ega bo'lgan mahsulotdir. Tovar - ishlab chiqaruvchi faoliyatining iste'molchiga shartnoma bo'yicha sotish uchun moljallangan mahsuli, shu jumladan import mahsuloti («Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 1996-yil 26.04.dagi Qonuni) (1-ilova). Iste'molchi - foyda

olish bilan birga shahsiy iste'mol yoki xususiy xo'jalikda foydalanish maqsadida tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yohud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs). («Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 1996-yil 26.04.dagi Qonun). Tovarlar bir qancha belgilariga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi: - iste'mol tovarlari - yakka tartibdagi iste'molchilarning shaxsan foydalanishlariga moljallangan tovar turlari; - sanoat tovarlari - boshqa tovarlarni ishlab chiqarishga moljallangan, uning xomashyo va texnologik ta'minotini yaratuvchi tovar turlari;

- tashkiliy texnika tovarlari - m a'mariy-boshqaruv faoliyatini tashkil qilishni yaxshilashga moljallangan tovar turlari. Tovarlar har bir turi turkumlarga bo'linadi. Taqsimlash asosini tovarlarning vazifasi va ehtiyojlarni qondirish tashkil etadi. Tovarlar turkumi - ehtiyojlarning umumlashtirilgan guruhlarini qondiruvchi ko'plab tovarlardan iborat. Iste'mol tovarlarining turkumlaridan biri - tibbiyot tovarlari turkumidir. Tibbiyot tovarlari turkumi inson salomatligini ta'minlashda ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga moljallangan, tashxis qo'yish, davolash va kasallikning oldini olishda qo'llaniladi. Turkumlar ishlatilayotgan xomashyo va vazifasiga bog'liq holda kichik turkumlar, guruhlar, turlar va xillarga bo'linadi. Tovarlar kichik turkumi deganda, muayyan tafovutlarga ega bo'lgan ehtiyojlarning o'xshash guruhlarini qondiradigan ko'plab tovarlar tushuniladi. Tovarlar guruhi - ehtiyojlarning o'ziga xos guruhlarini qondiruvchi kichik tovarlar guruhi bo'lib, ishlatilayotgan xomashyo, tuzilishining xususiyatlariga bog'liqdir. Yuqorida bayon etilgan xulosaga 2 ta yirik guruh misol bo'lib xizmat qilishi mumkin: ashyo (material)lar va buyumlar. Ashyolar buyumlardan davolash-tashxis jarayonida qo'llanilganda takroran ishlatilishi mumkin emasligi bilan farq qiladi. Har bir ashyo bitta turdagi xomashyodan tayyorlanadi. Masalan, bog'lash, choklash, plombalash ashyolari. Buyumlar bir necha marta ishlatishga va imkon qadar uzoq xizmat qilishga moljallangan. Shu sababdan, ular pishiq va mustahkam ashyolardan yasaladi. Masalan, tibbiy asboblardan rezina va lateks buyumlari. Tovarlar kichik guruhi deyilganda, bir guruh tovarlar bilan umumiy vazifaga ega bo'lgan ko'plab kichik, lekin boshqa kichik guruhga mansub tovarlardan o'ziga xos belgilar bilan

farqlanadigan tovarlar guruhi tushuniladi. Masalan, jarrohlik asboblari guruhi kichik guruhiarga - kesuvchi, qisqich, jarohat kengaytiruvchi va hokazo guruhlarga bo'linadi. Tovarlar turi - yakka tartibda mo'ljallanganligi va o'xshash belgilar bilan bir-biridan farq qiladigan tovarlar yig'indisi. Tovaming asosiy tavsiflari Tavsif - predmet yoki hodisaning farqli xossalari, belgilari yig'indisi. Mazkur ta'rifga asoslanib, tovarlarning asosiy tovarshunoslik tavsiflarini ifodalash mumkin. Tovarlar tovarshunoslik faoliyatining obyektlari sifatida 4 xil tavsifga ega: sifat, miqdor, assortiment va qiymat tavsiflariga ega (2.1-chizma). Ular tovaming iste'mol qiymatini yaratib, insorning haqqoniy ehtiyojlari (fiziologik, ijtimoiy, psixologik va hokazo) ni qondiradi. Tovarlarning sifat tavsifi - turli xil ehtiyojlarni qondirish qobiliyatiga ega bo'lgan ichki turdosh iste'mol xossalari yig'indisi. Bu assortiment bilan uzviy boglangan, chunki ularga umumiy vazifa xosdir. Sifat tavsifida xavfsizlik va ekologik (atrof-muhitga nisbatan tozalik) xossasi muhim o'rin egallaydi. Tovarlarning miqdor tavsifi - tovarlarga raqamlar, olchamlar yordamida ta'rif berishdan iborat. Tovarlarning assortiment tavsifi - tovarlarning funksional yoki ijtimoiy vazifasini aniqlovchi tovarlarning farqli turli xossalari va belgilar yig'indisi. Bunday tavsif guruhi, kichik guruhi, tur, xilma-xil, nomi, savdo rusumini o'z ichiga olib, tovarning bitta turi yoki boshqa turi nomidan jiddiy tafovutlarni belgilaydi. Masalan, tibbiy anatomik arra (birmuncha yumshoq suyaklarni arralashda ishlatiladi), romli arra (yirik suyaklar uchun) va pichoqli arra (barmoqlarning suyaklarini kesib tashlash - amputatsiya qilish uchun) bir-biridan funksional vazifalari bilan farq qiladi. Mazkur tafovutlar ularning sifat tavsiflariga bogliqdir. Assortiment tavsifi tovarlarning eng muhim tavsiflaridan biri bo'lib, har xil turlar va nomlardagi tovarlar o'rtasidagi jiddiy tafovutlarni aniqlaydi. Yuqorida ko'rsatilgan barcha tavsiflar tovarlar qiymati bilan albatta bog'liq, chunki bu tovarlarni ishlab chiqarish va iste'molchiga yetkazib berish xarajatlarini o'z ichiga oladi.

Narxlar tushunchasi. Marketing muhiti. Marketing tadbirlarini ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillar. Tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish. Aholi salomatligini yaxshilashda marketing xizmatini o'rni

NARXLAR TUSHUNCHASI..

Narx tushunchasi, uning mohiyati va narx turlari Narx bozor kategoriyasi bo'lib, tovarlar ayirboshlanganda yuz beradigan munosabatlarni anglatadi. Narx nazariy jihatdan olganda tovar qiymatining puldagi ifodasi, qiymatining bozordagi ko'rinishidir. Narx bamisoli barometr kabi bozor holatini ko'rsatib turadi, narx pasayib ketsa, tovar bozori kasodlikka yo'likkan bo'ladi, tovar nafsiz bo'lib, uni boshqa tovar bilan almashtirish yoki uning sifatini tubdan yaxshilash zarurligi pul tarkibiga qo'yiladi. Narxning iqtisodiy mazmunini uning funksiyalari ko'rsatib beradi.

Narx nimaga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar (tovar, xizmat) beshta asosiy funksiyani bajaradi:

1. bozor muvozanatini ta'minlash funksiyasi;
2. hisob-kitob, ulchov funksiyasi;
3. iqtisodiy regulyator funksiyasi;
4. raqobat vositasi funksiyasi;
5. ijtimoiy himoya funksiyasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning quyidagi turlari mavjud: demping narx, nufuzli narx, milliy narx, arzonlashtirilgan narx, jahon narxi, yashirin narx, erkin narx, standart narx, kontrakt (ulgurji) narx, chakana narx, o'zgaruvchan narx, limit narx, muvozanat narx.

Narx siyosati – narxni tashkil etish va narxni boshqarish strategiyasi va chora – tadbirlari yig'indisi; bu ishlab chiqarish holatlarini, bozor kon'yunkturasini, shuningdek ishlab chiqaruvchiga foyda keltirib, xaridor ehtiyojini qondirishdagi tovar va xizmatlarga narxni belgilashni bilishdir.

Narx strategiyasi – narxni belgilash va o'zgarishi bo'yicha chora – tadbirlaridir.

Narx taktikasi - qisqa muddatli xarakterga (narxga chegirma, narxga ustama) va bir marotabalik chora – tadbirlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Narx siyosatini boshqarish maqsadlari quyidagilardir:

- bozorda korxonaga mavqegini saqlab qolish;
- joriy foydani maksimallashtirish;
- bozor ulushi bo‘yicha liderlik;
- tovar sifati bo‘yicha liderlik.

Narxlar tovarni yangilik ko‘ra quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

1. “Qaymog‘ini olish” strategiyasi
2. Bozorga yorib kirish
3. “Psixologik” narx – sotuvchilar tomonidan narxni qabul qilish psixologiyasidan kelib chiqadi(narx yaxlit summadan kichikroq)
4. Bozorda yoki tarmoqda lider orqasidan boruvchi narx – bosh raqibga nisbatan narx o‘rnatiladi.
5. Ishlab chiqarish holatlarini qoplash xarajatlari
6. Tebranib turuvchi narx
7. Uzoq muddatli narx
8. Egiluvchan narx
9. Ustunlik narx – bozorda 70 – 80 % ulushni egallagan korxonaga qo‘yadigan narx.
10. Kelishilgan narx
11. Tashqi savdo oborotini ta‘minlovchi narx.

Narxlashtirish firmaning bozorda aniq ulushga erishishi, ko‘zda tutilgan foydani olishi va umuman tovarning qaysi hayotiy bosqichida, qanday siyosat yurgizib, raqobatchilar xatti-harakatlariga javob topishi demakdir. Hozir ko‘pchilik firmalar rahbarlarining (menejerlari) fikrlaricha narx siyosatini to‘g‘ri tanlash, yangi tovarni bozorga kiritish, tabaqalash, sotish, xarajatlari va boshqa omildan ham muhimroq hisoblanadi. Chunki, keyingi vaqtda bank tizimi, transport vositalari va iqtisodiyotning boshqa sohalariga ko‘proq erkinlik berish baho raqobatini kuchaytirmoqda.

Narxni o'zgartirish orqali raqobat talabning oshishi yoki pasayishiga bog'liq. Aksincha, narx qancha past bo'lsa, talab shuncha oshadi. Baho talab qayishqoqligining o'zgarishiga olib keladi. Ammo hamma xaridorlar ham bahoning o'zgarishiga bir xil munosabatda bo'lmaydilar.

Korxonalar o'z tovarlariga baho belgilashdan oldin, unga ta'sir etuvchi tashqi omillarni chuqur tahlil qilishlari zarur

Jahon tajribasida iste'molchilarni xarid qilishlariga qarab quyidagi to'rt turga (segmentga) bo'lib o'rganiladi:



1-rasm. Bahoga ta'sir etuvchi omillar.

- tejamli xaridorlar-xarid qilishda asosiy e'tiborni tovar bahosiga, sifatiga va assortimentiga qaratadi;

- o'z mavqeiga ishongan xaridorlar - tovar obraziga, firma obro'-e'tiboriga va xizmat ko'rsatish darajasiga ko'proq ahamiyat berib, kamroq qaraydilar.

- nafosatli xaridorlar - kichik firmalarni qo'llab-quvvatlash uchun ular tovarlari turlariga va bahoga ahamiyat bermaydi;

- faqat tovar sotib olish jarayonidagi qulay sharoitlarga qarab (bahosidan qat'i nazar) tovar xarid qiluvchi iste'molchilar, Ba'zi xaridorlar universal assortimentli va past baho bilan savdo qiluvchi do'konlarni ko'proq xohlashadi.


Hukumat o'z tomonidan aholini ijtimoiy muhofaza qilish, spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari va boshqa ayrim tovarlarning sotilishini chegaralab turish maqsadida baho siyosatiga ta'sir ko'rsatadi. Tovar harakati qatnashchilari: ishlab chiqaruvchi firma ko'proq foyda olish maqsadida monopol baho o'rnatishga, ulgurji va chakana savdo tarmoqlari ham o'z foydasiga ko'proq qo'shimcha hissa olishga harakat qiladi.

BAHOGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMIL - BU RAQIBLAR SIYOSATIDIR

Agar bozor to'yingan -«xaridorlar» bozori .bo'lsa, boshqa omillar ta'siri sezilmaydi. Faqat narxlar raqobati orqali talab va taklif muvozanati ta'minlanadi. Shu bilan birga, bahoga tovar ishlab chiqarish xarajatlari.-xom ashyo, ish haqi, transport, reklama kabilarga bo'lgan sarflar ta'sir ko'rsatadi.

Narxlashtirish strategiyasini ishlab chiqish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Maqsadni aniqlash, narxlashtirishning umumiy siyosatini belgilash, baho strategiyasi, strategiyani amalga oshirish va narxni moslashtirish.

Amaliyotda, narxlashtirishning uch xil maqsadi mavjud, firma ulardan birini tanlashi mumkin



2-rasm. Narxlashtirish siyosati.

Birinchi holatda firma bozorda o'z ulushini ko'paytirishga hiziqa, ikkinchisida - foydani ko'paytirish kerakligi, daromad olish va investitsiya xarajatlaridan foyda kelishini ko'zlaydi. Firma bozordagi o'z holatini ushlab turishiga asoslangan strategiyasida, hukumat tomonidan bo'ladigan noxush harakatlarning oldini olishga, raqiblar ta'sirini pasaytirish, tovar harakati qatnashchilari bilan yaxshi munosabatlarni saqlab qolish, yangi raqobat chiqishiga qarshi turish va bahoni muvozanatlashtirishga harakat qiladi.

Narxlashtirishning umumiy siyosati doirasida, firma tovarining bahosi uning aniq bozori va marketing faoliyati bilan bog'lanadi. Firmaning narxlashtirish strategiyasini quyidagi 5 omil aniqlaydi: *aniq xarajatlari va foydasi, raqiblar tovaridagi iste'molchini qiziqtiruvchi xususiyati, xaridorlar talabidagi farqlar. raqiblarning harakatlari va korxonalar marketing maqsadlari.*

Baho strategiyasi. Amaliyotda baho strategiyasi xarajatlar, talab va raqobatga asoslangan bo'ladi. Xarajatlarga binoan tovar bahosini aniqlashda marketologlar ishlab chiqarish xarajatlari, muomala sarflari va qo'shimcha xarajatlarga xohlagan foydani qo'shadilar.

Talabni o'rganishga asoslangan baho strategiyasi, marketologlar bozorda iste'molchilar xohishi va istaklarini tahlil qilib, ularga mos narx o'rnatadi.

Raqobatga asoslangan baho strategiyasi bo'yicha tovarga bozordagidan baland yoki past narx belgilanishi mumkin. Unda asosiy e'tibor tovarni raqiblarnikiga qaraganda afzallik tomonlari, servis va raqobat muhitiga qaratiladi

Yuqoridagi maqsadlarga ko'ra tovar narxini asosi (bazasi) yaratiladi.

1.1. Bozorga chiqarilayotgan tovarga bo'lgan talab hajmi va uning dinamikasi aniqlanadi.

1.2. Raqobatli bozorda har bir tovar guruhi bo'yicha talabning qayishqoqlik ko'rsatkichi hisoblanadi.

1.3. Xaridorlarning iqtisodiy va psixologik imkoniyat lari asosida mazkur tovarni sotib olishi va taxminiy bahosi belgilanadi. Ba'zida, firmalar yangi tovarlariga xaridorlarning o'zlari narx belgilab berishlarini ham taklif, qiladi. Bunda ularning mavqei oshadi va yaxshi reklama vositasi bo'ladi.

2.1. Korxonaga uchun ma'qul bo'lgan bahoni tanlash, uning bo'lajak sotish hajmiga ko'paytirish orqali mo'ljallangan foyda olish rejasi ta'minlanadi.

2.2. Jami xarajatlarni hisoblash. Buning uchun ulgurji narxni aniqlashdan boshlaymiz.

3.1. Tovar narxi darajasini va tarkibini raqiblar tovarlari bahosiga nisbatan aniqlash hamda uning tovarni texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari sifati va boshqa raqobatbardoshlik xususiyati asosida korrektirovka qilish.

3.2. Narxni tovar yetkazib berish sharti va muddatiga moslashtirish.

3.3. Narxni raqiblarning bo'lajak xatti-harakatlariga moslab o'zgartirish.

4.1. Narxning yuqori va past kamchiliklarini hamda uning kamaytirish chegaralarini aniqlash.

4.2. Narx dinamikasini va uni tovarning bozordagi hayotiy bosqichlariga bog'liq tomonlarini topish.

5.1. Tovarning xillari (modifikatsiyalari) orasidagi mutanosiblikni topish.

5.2. Tovarlar modifikatsiyalarining sifat belgilariga mos baho chizig'ini aniqlash.

5.3. Ular ichidan tovarlar modellarini aniq farqlovchi chegaralangan baholar sonini o'rnatish.

5.4. Qo'shimcha va yordamchi tovarlar bahosini aniqlash. Tovarlar majburiy komplektlarga kiruvchi qismlariga (ehtiyoj qism, batareyka va hokazo) ba'xoxo qo'yish.

5.5. Narx tartibini shakllantirish va qaysi o'lchom birligini unga asos qilib olish.

6.1. Narx taktikasini ishlab chiqish:

- bir xil chiziqli narx- bir mahalda va bir xonada har xil tovarlar bir xil narxda sotiladi;

- tushib borayotgan, zarar ko'rayotgan zo'ravon firma o'z tovarlarini past bahoda sotishi;

- mavsumlararo tovar sotishni tashkil etish va boshqalar.


6.2. Sotuvchiga to'g'ri keladigan ayrim yaxshi va yomon sharoitlarni hisobga olish va shunga mos ravishda tovar narxiga imtiyoz berish yoki qo'shimcha qilishni ko'zda tutish

Oxirgi narxga quyidagi omillar ta'sir etadi:

1. Tovar iste'molchilari
2. Davlat tomonidan tartibga solish
3. Tovar harakati kanallari qatnashchilari
4. Raqobat.

Bozor narxining asosiy xususiyatlari ularning doimo o'zgarib turish qobiliyatidir. Narxlar hech qachon sababsiz o'zgarmaydi. Yuqori narxlar esa yuqori sifatli, yangi iste'mol qobiliyatiga ega bo'lgan tovarlarga o'rnatiladi.

Narx darajasiga tovarning raqobatbardoshligi va bozordagi o'rni bog'liqdir. Narx belgilash maqsadlari: bozor ulushini ko'paytirish, qisqa vaqt ichida eng ko'p foyda olish, yuqori foyda normasini uzoq muddat saqlab qolishdan iborat.



3-Rasm. Narxni tashkil etish uslublari

Birlamchi narxni aniqlashga vaqt bo'yicha narx darajasini aniq hisoblash ta'sir qiladi. Bu hisoblash bozor segmentiga, tovarning yashash davriga, talab va taklifning potensial miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Marketingda tovar siyosati ijtimoiy tovar ishlab chiqarishning barcha bosqichlari, yangi ishlab chiqarishning, taqsimlashning, almashuv va iste'molchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yuritiladi.

Narx bajaradigan ba'zi bir vazifalarni ko'rib o'tamiz: avvalo narxlar ishlab chiqarish va iste'moldagi o'zgarishlardan xabar beradi.

Narxlar faqat iste'moldagina emas, balki ishlab chiqarishdagi o'zgarishlardan ham darak beradi.

Narxlarning boshqa muhim vazifasi – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni rag'batlantirishdir.

Narxlar mexanizmi ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdorini ko'paytirishgina emas, balki ishlab chiqarishning eng tejamli usullarini ishlashni ham rag'batlantiradi.

Narxlarning uchinchi vazifasi ikkinchisi bilan chambarchas bog'liq. Bu daromadlarning taqsimlanishiir. Tovar ishlab chiqarish sharoitida xo'jalik faoliyati ishtirokchilari oladigan daromadlar ular o'z shaxsiy yoki ishlab chiqarish

Narxni tashkil etish uslublari Xarajatlar asosida Raqobat asosida mo'ljallangan Talabga mo'ljallangan Kombinasiyalashgan iste'mollarini ko'plab sotadigan yoki sotib oladigan tovarlar va xizmatlarning narxlariga bevosita bog'liq bo'ladi.

Narxlarning to'rtinchi vazifasi alohida korxonalariga va xo'jalik sohalariga ishlab chiqarish omillarini taqsimlashdir.

NARX SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH VA NARX DARAJASINI HISOBLASH USLUBLARI

Narx bilan iste'molchilar o'rtasida juda chambarchas aloqadorlik mavjudki, uni iqtisodiy tamoyillar: talab qonuni, talabning narx ravonligi, bozor segmentasiyasi bilan izohlash mumikn. Talab qonuni iste'molchilar odatda qimmat narxlarga qaraganda arzon narxlarda ko'proq tovarlar sotib olishini ifodalaydi. Ammo har qanday tovar ham «narx-miqdor» aloqadorligiga to'g'ri kelavermaydi. Ayrim mahsulotlarga talab shundayki, muayyan sharoitlarda yuqoriroq narxlar ko'proq

tovar aylanmasi hajmini ta'minlaydi. Bunday tovarlar bozorning ayrim segmentlariga mo'ljallangan – bular qimmatbaho avtomobillar, kemalar, zeb-ziynat buyumlari, mo'yna va boshqalar.

Ikki narx segmenti yaqqol ko'zga tashlanadi: «narx» xaridori va «sifat» xaridori bor. Ko'pincha xaridorlar sifatga nisbatan ishonch bildirib, ortiqcha pul sarflaydilar. YUqoriroq narxlar go'yo ularga sifatga nisbatan ishonch bildirib, bu ayniqsa, noxush oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan mahsulotlar xaridida ko'p kuzatiladi.

Narx ravonligi iste'molchilarning xarid qilinadigan tovarlar miqdori nuqtai nazaridan narx o'zgarishlariga o'ta sezuvchanligini belgilaydi. Amalda talab ravonligini uch ko'rinishi, ya'ni ravon talab, noravon talab hamda yakka (unitar) talabga bo'lish mumkin.

Bozor ravon talab vaziyatida narxlardagi o'zgarishlarga o'ta sezuvchan bo'ladi.

Bozor noravon talab vaziyatida narxlardagi o'zgarishlarga etarli darajada sezgirlik ko'rsatmaydi.

Yakka ravonlik vaziyatida sotuvchilar ko'p bo'lgan, ularning bir mahsulot o'rnini ikkinchisining mahsuloti bosa oladigan joylarda ko'zga tashlanadi. Ko'pgina qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab yakka ravonligi aks ettiradi. SHunday qilib, narxlardagi o'zgarishlar talab va taklifga muvofiq ko'tarilib-pasayib turadi, mahsulot ishlab chiqaruvchilar xohishi bilan narx belgilanmaydi.

Azaldan talab darajasi narxlarning eng yuqori chegarasini ko'rsatadi, ya'ni bu chegaradan yuqorida tovar ayirboshlash umuman mumkin bo'lmaydi. Ammo iste'molchilar mahsulotni xayolidagi yagona qat'iy narxda izlaydi. Marketologning vazifasi ham bozor belgilaydigan chegaralar doirasida maqbul narxlarni topish hisoblanadi. Ko'pgina firmalar bozorlardagi turli narxlarni tadqiq etish, tekshirish, o'rinbosar tovarlar narxi darajasini raqiblar narxni o'rganish yo'li bilan statistik tahlil qilish usuli, grafik ekspert baholovchi usullaridan foydalanib, talab o'zgarishini o'lchashni o'tkazishga intiladi.

Ma'lumki, xarajatlar ishlab chiqarish hajmining ko'payishi yoki kamayishi bilan bog'liq holda o'zgarish-o'zgarmasligiga qarab doimiy, shartli-doimiy,

o'zgaruvchan turlarga bo'linadi. Doimiy xarajatlar chiqarilgan mahsulot hajmiga qarab o'zgarmaydi. Bu xarajatlar tarkibiga qurilma va asbob-uskunalar amortizatsiyasi, mulk solig'i (daromad solig'i), qo'shimcha xarajatlar va boshqa chiqim turlari kiradi.

O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq holda o'zgarib boradi, unga xom-ashyo, materiallar, ish haqi va boshqalar kiradi. SHartli-doimiy xarajatlar boshqarish bilan bog'liq ayrim xarajatlar, yordamchi materiallar olishga ketadigan chiqimlar va boshqalar kiradi.

To'liq xarajatlar jami doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar yig'indisidan tashkil topadi. Shuningdek, ishlab chiqarishning chegaralangan (marjinal) xarajatlar ham hisoblanadi. Bu xarajatlar ishlab chiqarish hajmi ko'paygan (kamaygan) hollarda bir mahsulot birligiga to'liq xarajatlarning ko'payishi (kamayishi)ni ifoda etadi. SHunday qilib, firma xarajatlari tarkibi, dinamikasi, miqdori narx uchun minimal darajani tashkil etadi, chunki bu xarajatlardan pastroq narx hech qanday foyda bermaydi.

Korxonalar narxni belgilash ekan, xarajatlarning jami manzarasi ko'rib chiqiladigan, zarar ko'rmasligini ta'minlaydigan tahlil usulidan foydalanadi. Bunday tahlil narxlarni belgilashda foydali vosita hisoblanadi. Ammo tor ishlab chiqarish ixtisoslashuvi sharoitida, o'zgaruvchan xarajatlarni oson hisoblash mumkin bo'lgan paytlarda uni qo'llash yaxshi natija beradi. Zarar ko'rmaslikni tahlil etishda asosiy e'tibor mahsulot sotish hajmi nuqtasiga, to'liq daromad to'liq xarajatlarga teng bo'lgan, ya'ni na foyda na zarar bo'lmagan nuqtaga qaratiladi. Marketologlar bir qator har xil narxlarni tadqiq etadilar, so'ngra har bir narx uchun zaruriy hajmlar kiyoslanadi. Raqobat narx siyosatida muhim barometr bo'lib xizmat qiladi. Asosan narxni o'zgartirish yo'li bilan talabga ta'sir ko'rsatish raqobatning narx bilan bog'liq usullarini yaratadi.

Narx bilan bog'liq bo'lmagan raqobat usullarida firmalar o'z mahsulotining o'ziga xos hislatlariga zo'r beradi, mahsulot sotish, tovarlar harakati, reklama, mahsulotni joylash, servis kabi marketing qismlariga katta e'tibor beradi. ***Bozorda narx uchta guruh omil natijasida shakllanadi:***

1. Talab omillari (bozorda o'xshash tovarlar mavjudligi va ularga bo'lgan narxlar, bozorga kirish, xaridorlar daromadlari, xaridorni talablari, talabga yo'naltirilgan narx);

2. Xarajat omillari (ishlab chiqarish xarajatlari, marketing xarajatlari, foyda).

3. Raqobat omillari (tarmoqdagi firmalar soni, aynan o'xshash import tovarlari, raqobatchilar tovarlariga bo'lgan narxni bilish).

Asosiy narxni belgilash uslubi quyidagilardan iborat:

- narxlashtirish masalasi qo'yiladi
- talabi aniqlanadi,
- xarajatlari baholanadi, - raqobatchilar tovari va narx tahlil qilinadi,
- narxni shakllantirish uslubi tanlanadi,
- oxirgi natijaviy narx o'rnatiladi.

Firma talab hajmiga asoslanib, xarajatlarning miqdorini belgilab, raqiblar narxlarini o'rganib, o'z mahsulotlariga narx belgilashga kirishadi.


Bunda narx belgilashning turli usullaridan foydalanish mumkin (4-rasm). ***Narx belgilashning 3 ta usuli mavjud:***

1. Firmaning ichki manfaatlariga kuchli yo'naltirilganligini namoyon etib, sarf – xarajatlar asosida narx belgilash.

2. Raqobatchilarning narxiga qarab narx belgilash.

3. Marketingga yo'naltirilgan narx belgilash usuli.

Bunda muayyan bozorda iste'molchi uchun qimmatli bo'lgan xususiyatlari va marketing strategiyasi hisobga olinib narx belgilanadi.



4-rasm. Narx belgilash usullari

Sarf xarajatlarga asosan narx belgilashning 2 ta usuli mavjud:

1. Tannarx asosida narx belgilash
2. To'la xarajatlar asosida narx belgilash

Tan narx (ishchi kuchi, materiallar, yoqilg'i, energiyaga ketadigan xarajatlar, amortizatsiya, sug'urta, ustama xarajatlar, boshqaruvga ketadigan xarajatlar hisoblab chiqiladi).

Ko'pincha korxonalar mahsulot sotish narxini aniqlashda sodda formulalardan foydalanadi. Formulalarga ko'ra, narx belgilashning boshqa jami usullari kabi, birinchi navbatda e'tiborni foydaga qaratadi, talabni hisobga olmaydi.

«O'rtacha xarajatlar plyus foyda» tamoyili bo'yicha narx belgilash tovarning tannarxiga muayyan ustama qo'yishdan iborat bo'lib, narx belgilashning eng oddiy usuli hisoblanadi. Ustama narx miqdori tovar turiga qarab, juda keng chegaralarda tebranib turadi. Shuningdek, tovarning ishlab chiqaruvchidan pirovard natijada iste'molchiga etib borishga qarab oxirgi narx ulgurji va chakana savdo qo'yadigan ustama narxlar yakunini ifodalaydi.

«Ko'zlangan foyda normasi» olishni ta'minlaydigan narx belgilash usulini Narx belgilash usullari Sarf xarajatlar Raqobatchilar Marketing qo'llaydigan ishlab chiqaruvchilar oldindan sarf etilgan kapital uchun muayyan qaytim foiz olishga intiladilar. Bu usul o'rtacha solishtirma xarajatlarni hisoblashga asoslanadi.

Narxni chegaraviy xarajatlar bo'yicha belgilash usulini qo'llash bilan firma mahsulotning qo'shimcha hajmi birligini bu mahsulotni ishlab chiqarishning alohida qiymatiga sotadi, bu holda xarajatlarning faqat bir qismi koplanadi, foyda amalga oshmaydi. Narx belgilashning bu strategiyasi agar firma ishni to'xtatish xavfi ostida qolgan va foydalanadigan ishchi kuchini saqlab qolishni hohlagan sharoitlarda naf keltirishi mumkin.

Savdoda do'konlarga xaridorlarning kelishini ko'paytirish uchun sotuvchilar ayrim tovarlarni to'liq xarajatlaridan pastroq baholab, «jalb etuvchi» narxlar yaratadilar. Xaridorlar ko'payadi, ular arzon narxdagi tovarlar bilan birga bunga qo'shimcha ravishda narxi me'yorda bo'lgan tovarlarni ham xarid qiladilar.

TOVARLARNING “HAYOTIY DAVRLARI” MOBAYNIDA NARXLARNING O‘ZGARUVCHANLIGI

Bozor tez o‘zgarib boradi va shunga ko‘ra, har bir mahsulot ham o‘z yashash davrini ham o‘taydi. Shu vaqt davomida firmalar doimo narxlarga o‘zgartirishlar kiritadi. Yangi mahsulotga narx belgilash eng jiddiy bosqichlardan biridir.

Yangi mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar bozordagi talab darajasi, raqiblar harakati hali etarli darajada ma’lum emas.

Narx belgilashning qiyinligi, muayyan darajada mahsulotning yangiligi darajasiga ham bog‘liq. Bu daraja esa uchga bo‘linadi:

- eng yangi mahsulot;
- texnikaviy ilg‘or mahsulot;
- original bo‘lmagan (yangi taqlidiy) va o‘rinbosar mahsulotlar.

Bunda mutaxassislar narxga nisbatan asosiy iste‘molchilarning munosabati darajasini belgilaydilar, shuningdek, raqiblar bozorga qay darajada tezlik bilan kirib kelishi mumkinligini o‘rganadilar. O‘ziga o‘xshash o‘rinbosarlari bo‘lgan yangi mahsulot taqlidiy yoki moslashtirilgan mahsulot tarzida tasnif etiladi. Bunday hollarda narx siyosati ilgarigi taktikasini davom ettiradi va narx darajasi muqobil tovarlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan sifat va miqdorga qarab o‘zgaradi.

Mahsulotning bozorga kirib kelishi va o‘sishi bosqichidan to‘yinish bosqichiga harakati darajasiga qarab, narxlarni puxta boshqarish narx marketingni strategiyasini amalga oshirishning kaliti hisoblanadi.

To‘yinish bosqichida narxlarni ko‘tarish odatda talabning ko‘payishi emas, balki ishlab chiqarish xarajatlarning qiymatini ortishi oqibatidir. SHu sababli mahsulotning turiga qarab yo erkin narxlar qo‘yiladi yoki tovarlar sotish hajmini ko‘paytirish uchun narxlar pasaytiriladi.

Yo‘qolib ketayotgan mahsulotlarga narx marketingda keyingi rejalarga qarab ikki muqobil narx belgilash yo‘li qo‘llaniladi. Ishlab chiqarishni qisqartirish uchun narxlarni bosqichma-bosqich pasaytirish strategiyasi jami g‘amlamalar sotib tugatilgunga qadar amalga oshiriladi. Unga muqobil holda foydani quvvatlash

yo'lida qo'shimcha xarajatlarni, xususan mahsulot sotishni rag'batlantirish xarajatlari qisqartiriladi, narxlar esa ilgari darajada saqlab qolinadi. Raqiblarning bozorni tashlab chiqib ketishiga qarab, bozor ta'minoti manbalari qisqaradi va aksariyat bunday vaziyatda shu mahsulotga hali muhtoj bo'lgan muayyan bozor segmenti saqlanib qoladi. Bu esa, mahsulot yashash davrining so'nggi bosqichi davrida bozorda qolgan firmaga o'z narxini oshirish imkonini yaratishi mumkin.

Savdo-sotiq faoliyatida marketing mutaxassislarini uchun narx belgilashning ikkita asosiy siyosati mavjud, bu «qaymog'ini olish» va «kirib olish» siyosatidir.

«Qaymog'ini olish» siyosati avvalo, tovar narxi ishlab chiqarish narxidan ancha yuqori o'rnatib, asta - sekin uni tushirib boradi. «Qaymog'ini olish» siyosatidan aksariyat bozorga yangi mahsulotni joriy etishda foydalaniladi.

Bunda narx qandaydir bir yuqori darajada belgilanadi, mahsulot esa segmentlash natijasida asosiy deb e'tirof etilgan bozorda sotiladi. Bozorning to'yinishidan so'ng iste'molchilarni jalb qilish maqsadida narx pasaytiriladi. Shunday yo'l bilan to'liq daromad eng ko'p miqdorga etkaziladi. Shu sababli yagona yo'l – tovar sotish bozorlarini kengaytirish, yangi segmentlar izlashdir.

«Kirib olish» siyosatida narx ketgan sarf xarajatlardan past o'rnatiladi. Narx past bo'lib o'zining doimiy mijozlarini egallab bo'lgandan so'ng, asta-sekin narx ko'tarilib boriladi. Doimiy mijozlar narx ko'tarilsada, o'sha firmaga bo'lgan ishonchi tufayli tark etmaydi.

«Qaymog'ini olish» va «kirib olish» siyosatlari narx belgilashning favqulodda namoyon bo'lishi hisoblanadi. Uning birinchisi – qimmat narxlar, ikkinchisi – arzon narxlar strategiyasidir.

NAZORAT VA MULOHAZA UCHUN SAVOLLAR

1. Narx deganda nimani tushunasiz?
2. Narxga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
3. Narxlashtirishni maqsadlari nimalardan iborat?
4. Yuqori narx strategiyasi qanday o'rnatiladi?
5. Past narx strategiyasi deganda nimani tushunasiz?
6. Tovarni hayotiylik sikli davomida mahsulot narxi qanday o'rnatiladi?
7. Narx qanday o'rnatiladi?

8. Narxni belgilash omillari nimalardan iborat?
9. Narxni qanday funksiyalari mavjud?
10. Narxni qanday turlarini bilasiz?



Marketing muhiti tushunchasi va mohiyati

Marketing muhiti deganda korxonaga marketing xizmati xodimlarining mijozlar bilan yaxshi hamkorlik munosabatlarini o'rnatish va bu munosabatlarning saqlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi sub'ektlar va kuchlarning majmui tushuniladi. Muhit doimiy o'zgarishda, ya'ni u yoki bu salbiy yo ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi sababli, uni tizimli o'rganish, alohida jarayonlarni va ularning o'zaro aloqasini kuzatish zaruriyati marketing tadqiqotlari jarayonida juda muhim tadbir bo'lib hisoblanadi. Hatto muhitning arziyasini o'zgarishiga e'tibor bermaslik yoki nazoratni susaytirish korxonaning va bozorning boshqa sub'ektlari ishida juda og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Odatda muhitlar mikromuhit va makromuhitlarga ajratiladi. Makro-muhit yoki tashqi sharoitlar omillari asosan tizimli, umumiy bozor doirasidagi omillardan iborat. Bu yerga turli xil iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, demografik, geografik, milliy, ilmiy-texnikaviy, texnologik, ijtimoiy-madaniy va boshqa xarakterdagi ta'sirlarning keng spektri kiradi. Mikro-muhit yoki ichki sharoitlar omillari korxonaning faoliyati va uning imkoniyatlariga bevosita tegishli. Mikro-muhitning asosiy qismi firma

boshqaruvining nazorati ostida bo'ladi (faoliyat sohasini aniqlash, kadrlarni tanlash, xodimlar malakasining umumiy darajasi va marketing madaniyati, maqsadli bozorlar (segmentlar)ni, tovarlar harakatining yo'llarini tanlash, raqobat kurashida strategiyalarni ishlab chiqish, marketing vazifalarini yechish. *Shunday qilib, mikro-muhitni o'rganish* bozorning aniq sub'ektiga nisbatan qo'llanilgan holda amalga oshiriladi, undan farqli ravishda makro-muhit esa marketing va bozor sub'ektlari, mamlakat va xalq iste'moli tovarlari sohalari uchun umumiy ko'rinishda namoyon bo'ladi.

1986 – yilda F.Kotler megomarketing tushunchasini muomalaga kiritdi. Bu tushuncha maqsadli iste'molchilarga nafaqat tovar va xizmatlar taklif etish, balki bozor muhitining makro guruhlari bilan imkoniyat darajasida kelishilgan holda faoliyat olib borishni nazarda tutadi. Ayirboshlashning maqsadi, u yoki bu faoliyatning natijalariga ko'ra tijorat va notijorat marketingi farqlanadi. Tijorat marketingi – foyda olish maqsadida daromadi yuqori kompaniyalarda asosan, savdo va xizmatlar sohasida qo'llaniladi. Ko'p tarqalgan tovarlar va xizmatlar turlariga muvofiq shakllangan faoliyatdir. Ijtimoiy tashkilotlarda – maktab, kasalxona, bolalar bog'chasi, qariyalar pansionati kabilarda notijorat marketing tadbirlari o'tkazilib, Professor X.Meffert tomonidan tijorat marketingining asosiy shakllari tavsiflangan. Hududiy jihatlariga qarab: milliy, mintaqaviy, lokal va xalqaro (eksport, global va jahon) marketingi; qo'llanish sohasiga qarab iste'mol, sanoat, investitsion va xizmatlar marketingi xarakterlanadi. Bugungi kunda jismoniy shaxs yoki tashkilotning faoliyat turiga qarab tashkilot marketingi, shaxs marketingi, joy marketingi, ijtimoiy marketing qo'llaniladi. Tarmoqli marketing – sotish tizimi bo'lib, mahsulot iste'molchilarining o'zlari ham uning tarqatish jarayonida qatnashishlari yangi tarmoqlarni yaratishlariga imkoniyat beriladi. Tarmoqli marketing – bu tovarlarni mustaqil ravishda tarqatuvchi sotuvchi agentlarning tarmoqli tashkilotini yaratishga asoslangan tovarlar chakana savdosining bir turidir. Mikrodarajada marketing ishlab chiqaruvchi va iste'molchini o'rganish uchun dasturlar yaratiladi. Mikromarketing (ingl. Micromarketing) - iste'mol bozorining alohida geografik, demografik va psixografik segmentlariga yo'naltirilgan

marketing dasturlari ishlab chiqilishi, mahsulotlar ishlab chiqarilishi, firma bozor strategiyalari va reklama kompaniyalari borasidagi aniq maqsadga qaratilgan marketing sa'y-harakatlari. Mikromarketing – «ma'lum bir kompaniya tomonidan iste'molchilarning xohish va istaklarini qondirgan holda tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berish bilan bog'liq harakatlar majmuasidir».

Marketingni ichki va tashqi muhiti, ularning o'zaro bog'liqligi

Marketing muhiti – bu korxonaning tashqarisida xarakatlanadigan sub'ektlar va kuchlar bo'lib, ular uning maqsadli mijozlariga bo'ladigan munosabatlarini vujudga keltirish va qo'llab – quvvatlashga ta'sir o'tkazadilar. Korxonaning marketing faoliyatiga murakkab va o'zgaruvchan bo'lgan tashqi muhit omillari ta'sir qiladi. **Tashqi muhit sub'ektlari** ta'minotchilar, vositachilar, xaridorlar, raqobatchilar, kontakt(aloqa) auditoriyalari va boshqalar bo'lib, ular korxonaning marketing faoliyatiga yordam berish yoki to'sqinlik qilishda ishtirok etadilar.

Tashqi muhit omillari demografiya, iqtisodiy, tabiiy, ilmiy texnika, siyosiy huquqiy va madaniylar bo'lib, ular korxonaning marketing imkoniyatlarini yoki xaf xatarini vujudga keltiradilar.

Xaridorlar o'zlariga kerakli bo'lgan tovarlarni izlashga vaqt sarflamaydilar. Bu ishlarni ular uchun raqobatchilarni tovarlari narxini taqqoslagan holda maxsus elektron dasturlar amalga oshiradi. Yana bir holat: 2025 yilga borib, kompyuter tovarlar zahirasi qachon tugashini hisoblab, uni siz uchun yaqin oradagi supermarketga buyurtma beradi.

Kelgusidagi bunday o'zgarishlar, korxonalar rahbarlari va marketologlarni o'yga solmoqda. Shu sababli ham marketing xizmatlari bunday yangi holatlarni birinchi bo'lib, tadqiq etib, uning chorasini izlab topishi kerak.

Birinchidan, ularda zarur axborotlarni yig'ish maxsus uslublarga ega bo'lgan, marketing tadqiqotlari bor.

Ikkinchidan esa, ular iste'molchilarni va raqobatchilarni yaxshi biladilar. Shu sababli, marketologlar tez o'zgarayotgan muhit uchun kerakli bo'lgan, marketing strategiyalarini tezda ishlab chiqib, uni o'zgartiradilar.

Marketing muhiti – mikro va makromuhitdan iboratdir.

Mikromuhit – bu korxonaning yaqin atrofda xarakterlanayotgan va uni mijozlariga xizmat ko‘rsatish qobiliyatiga ta’sir o‘tkazuvchi kuchlardir.

Ularga korxonalar, ta’minotchilar, marketing kanallari ishtirokchilari, iste’molchilar, raqobatchilar va aloqa (kontakt) auditoriyalari kiradi.

Marketing vositachilariga korxonaning so‘nggi iste’molchilariga tovarlarni siljitish, sotish va taqsimlash bo‘yicha yordam beradigan korxonalar kiradi. Ularga resellerlar, logistik firmalar, marketing agentliklari va moliyaviy vositachilari kiradi.

Resellerlarga – ulgurji va chakana savdo bilan shug‘ullanuvchi korxonalar hamda alohida shaxslar, ya’ni tovarlarning taqsimot kanallari ishtirokchilari kiradi.

Makromarketingga quyidagi sohalar: marketing texnologiyasi, tovarning sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlari, iqtisodiy resurslarni kengaytirish va jamlash marketingi, ijtimoiy marketing va h.k. kiritildi. Samarali makromarketing tizimi iqtisodiy rivojlanishning mahsulidir. Samarali makromarketing tizimi iqtisodiy rivojlanish uchun zarur. Rivojlanmagan jamiyat: hamma o‘zi uchun mahsulot ishlab chiqaradi va sotuvchilar bo‘lmaydi, vositachilik rivojlanmaydi. Rivojlangan jamiyat: hamma narsa bozor orqali, degan g‘oyaga amal qiladi.

Makromarketing

– «mahsulot va xizmatlarini ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga jamiyat talab va istaklaridan kelib chiqqan holda yetkazib beriladigan ijtimoiy jarayondir»:

- Butun bir tizimni qamrab oladi.

- Bu samarali va adolatlimi? Savdo va moliya sohasida marketing hozirgi kunda juda keng qo‘llanmoqda. Turizmning rivojlanishi tabiiyki, turizm marketingini, ta’lim xizmati bozorlarining kengayishi ta’lim xizmatlari marketingiga ehtiyojni keltirib chiqardi.

MENEJMENT MODULI VA PREDMETI. MENEJMENTNING MOHIYATI VA VAZIFALARI. MENEJMENT OB'EKTI VA SUB'EKTI

Menejment predmeti va izlanish uslublari

Har qanday fan o'z predmeti, nazariyasi va uslublariga egadir. Predmet - bu fanning nima bilan shug'ullanishi, uning qaysi sohaga tegishli ekanligini belgilaydi. Nazariya bu sohada yuz beradigan jarayon va hodisalarning ro'y berish qonuniyatlarini aniqlaydi. Izlanish usullari nazariyadan kelib chiqqan holda kishilar ilmiy va amaliy faoliyati qanday amalga oshishini ko'rsatib berishi, fanning shu sohasida hodisalarni umumlashtirish va o'rganishning turli vositalari va usullari tizimini ishlab chiqishi lozim, Menejment predmeti xo'jalik yuritishning barcha darajalarida menejmentning qonunlari (qonuniyatlari), tamoyillari va munosabatlarini o'rganishdan iboratdir. Menejment munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi bo'lib, turli iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, mehnat, psixologik va boshqa ko'rinishlarda namoyon boladi. Menejment munosabatlari menejment qo'l ostidagi xodimlar o'rtasida bo'ladigan aloqa va o'zaro ta'sirning murakkab majmuini ifodalaydi, demak, menejment, eng awalo, kishilarni boshqarishdir.

Menejment (inglizcha: management) - boshqarish, tashkil etish) - maxsus boshqarish faoliyati; boshqarish to'g'risidagi fan. Menejmentning holati ishlab chiqarish samaradorligiga, texnika va texnologiya darajasi hamda ishchi kuchining sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Menejment fanining mazmuni boshqaruv tizimi va boshqaruv ob'yekti orasidagi o'zaro munosabat bo'lib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rganishdan iborat. Boshqaruv - tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat etish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo'g'inlarda ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat. Menejment ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqadordir. Menejment dastavval iqtisodiy nazariya fani bilan yaqindan bog'liq. U iqtisodiy qonunlarni bilib olishga va ularga mos ravishda boshqarish jarayonida iqtisodiy

usullarni qo'llashga, har bir xodimga va jamoaga ta'sir ko'rsatishga asoslanadi. Bir qancha iqtisodiy fanlar: makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, statistika, mehnat iqtisodiyoti kabilar ham Menejment fani bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda Menejmentning nazariy asoslari va uning asosiy tamoyillari 14-15-asrlarda Amir Temur davrida shakllana boshlagan. Buyuk sarkarda "Temur tuzuklari" asarida davlat, qo'shin va boshqalarni boshqarish san'ati to'g'risida o'z qarashlarini bayon etib, izohlab bergan. Menejment fanining nazariy asosini bir necha yuz yillar davomida to'plangan amaliy tajriba natijalari tashkil etadi, ularni nazariy jihatdan asoslab turli xil konsepsiyalar, nazariy g'oyalar, ish prinsiplari va uslublari ishlab chiqilgan. Ammo alohida fan sohasi sifatida Menejment 19-asrga kelib shakllana boshladi. Boshqarish fanining asoschisi - amerikalik muhandis va tadqiqotchi F.Teylor hisoblanadi. Boshqarish tamoyillarini Teylorning zamondoshi fransuz olimi Anri Fay-ol ishlab chiqdi. Korxonada amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalarni u olti guruh (texnika, tijorat, moliya, mol-mulk va shaxslarni qo'riqlash, hisobkitob, ma'muriy)ga bo'lib, boshqarishni 6-guruhga kiritadi. Menejment yoki boshqarishning ob'yekti korxonada faoliyati, uning sub'yekti esa boshqarish ishini bajaruvchi idoralar va ularning xodimlaridir. Menejment bilan maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning qonun-qoidalarini chuqur biladigan malakali mutaxassislar - yollanma boshqaruvchilar - menejerlar shug'ullanadilar. Ular aholining alohida ijtimoiy qatlamini tashkil qiladi. M.ning yuqori (firma strategiyasini ishlab chiqish), o'rta (ishlab chiqarish, sotish, narx belgilash, mehnatni tashkil qilish), quyi (sex, bo'lim doirasida ishni tashkil qilish, kunlik, haftalik, oylik ish topshiriqlari bajarilishini boshqarish) bo'g'inlari bor. Shunga muvofiq holda menejerlar oliy martabali, o'rta toifadagi va quyi toifadagi menejerlarga bo'linadi. Menejmentda menejment ob'ekti, menejment mavzusi kabi ikkita kontseptsiya mavjud. Har bir tashkilot ikkita quyi tizimning kombinatsiyasi bilan ifodalanadi. Ulardan biri etakchi, boshqasi boshqarilishi mumkin. Ammo ikkala holatda ham ular odamlar o'rtasidagi munosabatlardir. Boshqarish - o'zaro bog'liq elementlarning o'zaro ta'siri. U sifat tavsiflari majmuasi bilan ifodalanadi, ulardan biri tizimda yuz beradigan barcha jarayonlar oldindan aytib bo'lmaydi. Shunday qilib, boshqaruv va

boshqaruv rivojlanmoqda. Shu bilan birga, sodir bo'layotgan barcha voqealarni tahlil qilish mumkin, bu sizga tadbirlarni tashkil qilish va tushuntirish imkonini beradi. Boshqarish predmeti - boshqaruv faoliyati olib boriladigan organ yoki shaxs . U bo'ysunishdagi tuzilmalarga yoki shaxslarga qaratilgan. Ular nazorat qilish ob'ekti. Shu bilan birga, tashkilotning bir qismi turli tuzilmalar va organlarga nisbatan qarama-qarshi vazifalarni bajarishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, boshqarish ob'ekti, shuningdek, boshqaruv predmeti.

Menejment obyekt haqida so'z yuritganda, eng avvalo, obyekt so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Shu ma'noda obyekt - bu bizdan tashqarida va bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan borliq, voqelik, moddiy dunyo, mavjudot, kishilar faoliyati, diqqat-e'tibori qaratilgan hodisa, narsa, shaxs, xo'jalik yoki mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan korxonalar, qurilish, ayrim uchastka va sh.k. Menejmentning o'rganish obyektini boshqaruv faoliyatiga doir iqtisodiy hodisa va jarayonlar, firma ishini samarali tashkil etish xususiyatlari, boshqaruvning amaldagi zamonaviy shakl va usullari, uning kelajak istiqbollari tashkil etadi. Bunda menejment nazariyasining rivojlanish tendensiyasi, uni tashkil etish tamoyillari va usullari, motivatsiya va boshqaruv samaradorligi masalalari obyekt sifatida o'rganiladi. Har qanday hodisa yoki jarayon negizi boshqariladigan obyekt va boshqaruvchi subyekt tizimlaridan tashkil topadi. Shu nuqtai nazardan obyekt va subyektlarni quyidagicha tavsiflash mumkin (2 – jadval).

Menejment obyekt va subyekt

Menejment		
№	Obyekti (boshqariluvchi hodisa, voqelik)	Subyekt (boshqaruv organi, rahbarlik)
1	2	3
1. Makrodarajada		
1	Mamlakat (respublika)	<ul style="list-style-type: none"> * Qonun chiqaruvchi hokimiyat (Oliy Majlis) * Ijro etuvchi hokimiyat (O'zR Vazirlar Mahkamasi) * Sud hokimiyati


2	Viloyat Tuman (shahar)	<ul style="list-style-type: none"> * QQR Jo'qorgi kengashi va viloyat deputatlari * QQR Vazirlar kengashi, viloyatlar hokimiyatlari * QQR Oliy sudi, viloyatlar sudlari * Tuman (shahar) xalq deputatlari * Tuman (shahar) lar hokimliklari * Tuman (shahar) sudlari
2. Megodarajada		
4. 5.	Konsern (ko'p tarmoqli korporatsiya) Sektor (tarmoq)	<ul style="list-style-type: none"> * Qo'mitalar va ularning raislari * Vazirliklar va vazirlar
3. Mikrodarajada		
6. 7. 8.	Korxonona (firma), korporatsiya Ishlab <u>chiqarish</u> O'z – o'zini boshqarish	<ul style="list-style-type: none"> * Jamoa kengashi va raislar, prezident * Korxonona (firma) rahbarlari, bo'g'in boshliqlari * Fuqarolar yig'ini, rais (oqsoqol) lar

Shunday qilib har qanday hodisa yoki jarayon ¹ negizi *boshqariladigan obyekt va boshqaruvchi subyekt* tizimlaridan tashkil topadi.

Boshqarish ob'ekti va sub'ekti. Boshqarish jarayoni boshqariladigan ob'ekt va sub'ektning (boshqaruvchi organ) bo'lishini ko'zda tutadi. Bu har qanday tashkilot o'zida boshqarishning ikkita tizimi: boshqariladigan va boshqaruvchi birligini aks ettiradi. Ikkala holda ham boshqariladigan va boshqaruvchi tizimlar o'rtasidagi munosabatlar - bu odamlarning o'zaro munosabatlaridir. Shunday qilib, boshqarish ob'ekti deganda, boshqarish faoliyati yo'naltirilgan tashkilotning muayyan tuzilishini yoki umuman tashkilotni tushunish kerak. Boshqarish sub'ekti - boshqarish faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilot yoki shaxs. Iqtisodiyotni boshqarish bevosita menejment obyektiga bo'lgan mehnat jamoalari va alohida xodimlardan iboratdir. Faqat ularning mehnat faoliyati vositasida ishlab chiqarishning moddiy unsurlari, ya'ni mehnat vositalari va predmetlariga ta'sir etiladi. Menejment obyektini mikro voqelikdan (moddiy dunyo, jamiyat) makro darajagacha bo'lgan voqelikni o'z ichiga oladi. Menejment ishini bajaruvchi idoralar va ularning rahbarlari menejment subyektlari hisoblanadi. Menejment usullari

kishilarni jamiyatning obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonunlari talablarini bajarishga undavdi. Ular aniq bir usul, uslub, maqsadga erishish yo'lini ifodalaydi. Demak, menejment uslubi - bu ishchi va xodimlarga, umuman, menejment obyektiga qo'yilgan maqsadga erishish jarayonida ularning faoliyatini muvofiqashtirishdir.

MENEJMENTNING MAXSUS IZLANISH USULLARI SIFATIDA QUYIDAGILARNI KELTIRISH MUMKIN



1. Tizim usuli menejment muammolarini yechishda ishlatiladi va tizimning butunligiga asoslanadi. Taraqqiy etgan davlatlarda mazkur usulning tizimli majmuali, tizimli tarkibli, tizimli funksional, tizimli kommunikatsion va boshqa ko'rinishlari mavjud.

2. Izlanishning majmuali usuli voqealarni va ularning bir-biri bilan bo'lgan aloqalarini faqat ushbu fan usuli bilan emas, balki boshqa xil hodisalarni o'rganuvchi fanlar bilan tadqiq etadi.

3. Izlanishning tarkibiy usuli - bu murakkab hodisalarni bo'laklarga ajratishdan iborat.

4. Vaziyatli yondashish - bu menejment faoliyatining maqbul usullarini ichki va tashqi sharoitga qarab belgilash.

5. Integratsion yondashish - bu izlanish usuli boshqa usullar ko'rsatkichlarini hisobga olish asosida boshqarishni tadqiq etish hisoblanadi.

6. Modellashtirish boshqariluvchi obyektning turli sxema, grafik va chizmalar, xom materiallar tayyorlash yordamida boshqarish usuli.

7. Matematik yondashuv - optimal qaror qabul qilish maqsadida matematik usullar va kompyuterlar keng miqyosda qo'llaniladi.

8. Kuzatish usuli - bu menejment objekti to'g'risidagi ma'lumotning rejali, ilmiy, uyushtirilgan asosda to'plash usuli.

9. Eksperiment usuli - menejment asosida boshqariluvchi obyektga nisbatan namunaviy, tajribadan o'tgan usullarni qo'llash. Undan tashqari, menejmentning eng asosiy bilish uslubi dialektik usul bo'lib, u menejmentga o'rganilayotgan ijtimoiy hodisalarning mohiyatini ochishda yordam beradi. Menejment usullarini ta'rif etishning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra: ma'muriy-tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va huquqiy shakllarga ajratish mumkin. Menejment mahorati uning barcha usullarini egallash, ularni to'g'ri baholab qo'llash, har bir aniq vaziyatda eng samaralisini topish qobiliyatiga ega bo'lishdan iboratdir. Boshqaruvning samaradorligi boshqaruv sub'ekti va ob'ekting o'zaro munosabatlari bilan belgilanadi. Sog'liqni saqlash tizimida Sog'liqni saqlash vazirligidan boshlab, markaziy tuman shifoxonasigacha bo'lgan boshqaruv organlari boshqaruv sub'ekti hisoblanadi; ob'ekti esa tibbiy xizmat ko'rsatuvchi barcha tibbiyot muassasalari hisoblanadi.

Vakolatlarni yuklash. Boshqaruv faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri xodimlarga turli vakolatlarni bo'lib berish hisoblanadi. Rahbarlar barcha vazifalarni uddalashlari uchun muayyan vakolatlarni ularni haqiqatda uddalashi mumkin bo'lganlarga yuklashi zarur. Vakolat - bu biror shaxs, muassasa, tashkilot, davlat va shu kabilar nomidan ish qilish uchun berilgan huquq, vakillik huquqi. Masalan, xalq deputati o'zining yuksak vakolatini saylovchilardan oladi.

Vakolatlarni samarali yuklash usullari. Qiziqtirish. Ishonch - qiziqtirishning eng oliy shakllaridan biri. Ishonch insondagi eng yaxshi xususiyatlarni yuzaga chiqaradi. Xodimlarga muayyan ishni bajarishga ishonch

bildirib, siz ularga faxrlanish va mukammallik xislatlarini singdirasiz. Ularga ishonch bildirib, siz ularning ishonchini qozonasiz, buning uchun, albatta, muddat kerak. Ularning mavqei siz bilan ishonch darajasiga ko'tarilishi uchun xodimlarni muntazam o'qitish va malakasini takomillashtirish zarur.

Samarali boshqaruv. Mas'uliyatlarni qobiliyatliroq va iste'dodliroq xodimlarga berish rahbar ularning kuchlarini umumiyroq vazifalarni hal etish uchun to'play olishini bildiradi, bu natijada tashkilot uchun yuqori unumdorlikka aylanadi.

O'sish - siljish. Siz, xodimlaringizga ko'proq hokimlik va mas'uliyatni berib, tashkilotingiz o'sishiga, ya'ni taraqqiy etishiga ko'maklashasiz. Xodimning o'sishi uning mahorati va qiziqishida namoyon bo'ladi. Shunday xodimlar bilan tashkilotlar va rahbarlarning ishi unumliroq bo'ladi. Xodimlar orasidagi, bajaruvchilar va ma'muriyat orasidagi munosabat chiziqli va funktsional ko'rinishda bo'lib, chiziqli ko'rinishda (ierarxik, vertikal) har bir quyidagi xodim, faqat o'zidan yuqoridagi o'zining boshlig'iga bo'ysunadi; funktsional ko'rinishda (gorizontal) u xizmat turlari (terapiya, jarrohlik, tashxislash va boshqalar)ga bo'linadi. Rivojlangan mamlakatlarda (Yaponiya, AQSh) markazlashmagan boshqaruv tizimi keng taraqqiy topgan bo'lib, bunda boshqaruvning tarkibi asosan 4 qismdan tashkil topgan: oliy rahbariyat (strategik bosqich) - bunga Bosh vrach va moliya-iqtisodiyot xodimlari, tashkiliy-uslubiy va statistika bo'limlari kiradi. Ular qaror qabul qilishga mas'ul shaxslar hisoblanadi.

O'rta bosqichdagi rahbarlar (taktik bosqich) - Bosh vrachning tibbiy yordam turlari bo'yicha o'rinbosarlari va bosh hamshira; quyi bosqichdagi rahbarlar (operativ bosqich) - bo'lim mudirlari, bo'limning katta hamshiralari, eng quyi bosqichdagi rahbarlar (bajaruvchilar), vrachlar, hamshiralalar va h.k. Yaponiyada boshqaruv tizimi markazlashmagan, unda har bir xizmatchi o'z-o'zini nazorat qiladi, u nafaqat bajaruvchi, balki ma'lum darajada sub'ekt hisoblanadi. O'zbekiston xalq xo'jaligi sohasida, shu jumladan, sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sog'liqni saqlash tizimining o'zgarishiga olib keldi, ya'ni O'zbekistonda davlat sog'liqni saqlash muassasalari bilan bir qatorda xususiy va boshqa nodavlat muassasalar faoliyat ko'rsata boshladi. Bu esa, o'z navbatida, sog'liqni saqlashni

boshqarishni yangi sharoitga moslashtirishni talab etadi. Davlat byudjeti hisobidan ta'minlanadigan davlat sog'liqni saqlash tizimiga kiruvchi davolash-profilaktika muassasalari aholiga bepul tibbiy xizmat ko'rsatadi. Bunda fuqarolar va tibbiyot xodimlari orasidagi munosabatlar u yoki bu jihatdan sog'liqni saqlash boshqaruv organlari tomonidan boshqariladi. Sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa tizimlariga kiruvchi tibbiyot xodimlari va fuqarolar orasidagi o'zaro munosabat quyi-dagicha bo'ladi, ya'ni bunda xususiy tibbiyot muassasasi tibbiy xizmat ko'rsatuvchi sifatida, fuqaro esa tibbiy xizmatga ehtiyojmand shaxs sifatida o'zaro munosabatlarni bevosita o'zlari kelishgan holda yoki ular o'rtasidagi vositachilar - sug'urta kompaniyalari orqali amalga oshiradilar. O'zbekistonda sog'liqni saqlashni isloh qilishning asosiy vazifalaridan biri sog'liqni saqlash muassasalarini davlat monopoliyasidan chiqarish, markazlashmagan boshqaruv tizimini tashkil etish va demokratlashtirish hisoblanadi. Hozirgi kundagi sog'liqni saqlash tizimini 2 turda moliyalashtirish, ya'ni mablag' bilan ta'minlashga o'tishning asosiy maqsadi sog'liqni saqlash tizimini monopoliyadan chiqarishdir.

Sog'liqni saqlash muassasalarini xususiylashtirish va pullik xizmat tizimiga o'tish mehnatkashlarga tibbiy yordamni tanlash imkoniyatini berdi. Bu esa, o'z navbatida, demokratik tamoyillarning sog'liqni saqlash tizimiga kirib kelishiga asos bo'ldi. Sog'liqni saqlash tizimini monopoliyadan chiqarishning asosiy ko'rinishlaridan biri turli mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar uyushmasi, assotsiatsiyasining tashkil etilayotganligidir. «Sog'liqni saqlashni isloh qilishning Davlat dasturi» (10.11.1998 y.) sog'liqni saqlashni monopoliyadan chiqarishga katta turtki bo'ldi. Ushbu Dasturga ko'ra davlat ixtiyoridagi sog'liqni saqlash muassasalarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, sog'liqni saqlash tizimida xususiy mulkchilikni rivojlantirish, ularning raqobatbardosh bo'lishiga erishish maqsadida hokimiyatlarga, davlat boshqaruv organlariga yangi tashkil bo'lgan xususiy tibbiyot muassasalari uchun bo'sh binolarni ajratish, ularning oyog'qa turib olishi uchun har tomonlama ko'maklashish va boshqalar yuklatildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, sog'liqni saqlashni mablag' bilan ta'minlashning 2-modeli - markazlashmagan boshqaruv tizimini tashkil etish

tibbiyot muassasalarini boshqarishda o'ziga xos xususiyatlar namoyon qiladi. Byudjetdan moliyalashtirilgan sog'liqni saqlash tizimi markazlashgan bo'lib, u chegaralangan huquqqa ega va ko'proq bajaruvchi rolini o'ynaydi. Ob'ekt sifatida yopiq tizimga ega bo'lib, uning faoliyati sog'liqni saqlash tizimining yuqori boshqaruv organlari tomonidan belgilab beriladi va ko'proq unga bog'liq bo'ladi. Uning faoliyat darajasi stabil bo'lib, yangilanish va takomillashtirish darajasi birmuncha chegaralangan bo'ladi. Bunda fuqaro-patsient boshqaruv organlarining ob'ekti hisoblanadi. Sog'liqni saqlashning nodavlat tizimi markazlashmagan tizim hisoblanib, bunda faoliyatning har bir ishtirokchisi (fuqaro - xizmatdan foydalanuvchi va tibbiyot xodimi - xizmat ko'rsatuvchi sifatida) bir-biri bilan kelishgan holda, mustaqil qaror qabul qilishadi. Bunda tibbiyot muassasalarining asosiy faoliyati, maqsadi fuqarolar ehtiyojining o'zgarishi, ortib borishiga qarab, xizmat ko'rsatish bo'yicha tezda yangi talabga moslasha olishdan iborat. Bu esa bozor sharoitida muassasaning to'laqonli yashashi uchun o'z faoliyatini dinamik o'zgartira olish va barcha xizmatchilarning yangi sharoitga, talabga tezroq moslasha olishiga bog'liq.

MENEJMENT MAKTABLARI VA MUMTOZ MAKTABLARI

Menejment fan sifatida o'tgan asrda AQShda yuzaga keldi, biroq hozirgi vaqtgacha umumiy qabul qilingan va aniq ta'rifga ega emas. Atamaning mohiyatini yetarli darajada aniq belgilovchi bir necha ta'riflar bor. Amerika boshqaruv uyushmasining rezidenti Ekli menejment - bu buyumlarni boshqarish emas, balki odamlarga ta'sir ko'rsatishdir, degan edi. Bu odamlarni boshqarish orqali kerakli buyumlarga ega bo'lish san'atidir.

Menejment - ko'zlangan maqsadga erishish qobiliyati va mahorati demakdir. Boshqarishning asosiy maqsadi jamiyatning moddiy-ma'naviy ehtiyojlarini to'liq qondirish maqsadida ijtimoiy munosabatlarni va ishlab chiqarish tizimini takomillashtirish hamda rivojlantirishdan iborat. Menejment deganda, boshqa odamlarning xatti-harakati, intellekti mehnatidan foydalangan holda oldinga qo'yilgan maqsadga erisha olish qobiliyati tushuniladi.

Menejment - mavjud xom ashyo, moddiy, moliyaviy va intel-lektual resurslardan ishlab chiqarishda unumli foydalangan holda eng yuqori samaralarga erishishga qaratilgan boshqaruv san'atidir. Menejment - o'z faoliyatining muvaffaqiyatga erishishi maqsadidagi boshqaruv faoliyat turi. Menejer bu boshqaruv faoliyatini malakali amalga oshirayotgan odamlar toifasi - rahbardir.



Menejer va menejment so'zlarini bir-biriga aynan mos keladi deb aytish mumkinmi? Bir jihatdan ular o'xshash. Ammo ikki farqli tomoni bor. Birinchidan, menejment deganda, ko'p hollarda boshqaruv ob'ekti va sub'ektini, menejer deganda esa rahbar odamni tushuniladi. Ikkinchidan, menejer deganda faqat rahbar, boshqarish bilan shug'ullanadigan oddiy muhandis, iqtisodchi yoki vrachni emas, balki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan muhim kasb vakili, professional boshqaruvchi tushuniladi.

Sog'liqni saqlashni boshqarish jarayoniga jalb etilgan barcha vrachlar, hamshiralar, dorishunoslar, bo'lim boshlig'lari, sog'liqni saqlash tizimi rahbarlari va ma'murlari uchun menejmentning asosiy kontseptsiyasini tushunish, uni qo'llash uslubi muhim ahamiyatga ega. Kasalxonaga yotqizish vaqtini kamaytirish, davolash qiymatini pasaytirishga yo'naltirilgan tadbirlar va davlat ajratmalarining kamayishi

tibbiy xizmatlar qiymatida qarorlar aks etishini to'la anglashi lozim bo'lgan sog'liqni saqlashning barcha bo'g'inlari, undagi barcha xodimlarning faol ishtirokini talab etadi.

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini qayta qurishning muhim tomonlaridan biri mutaxassis rahbar xodimlar tayyorlash masalasi hisoblanadi.

Boshqarish o'z qo'l ostidagi xodimlarning muvaffaqiyatlarga erishishiga rahbarlik qilish ekan, u aniq maqsadga erishish bilan bevosita bog'liq. Shunday qilib, aniq maqsad va unga erishish yo'lidagi muvaffaqiyat boshqaruv natijalaridan biri hisoblanadi. Muvaffaqiyat deganda, jamiyat tomonidan tan olingan eng yaxshi natijalarga erishish tushuniladi. Muvaffaqiyat quyidagi elementlarni qamrab oladi:

1. Faoliyat bilan bog'liq real maqsadni aniqlash.
2. Uning jamiyat tomonidan tan olinishi.
3. Yaxshi natijaga erishish.

Boshqaruv jarayonida maqsadga erishish yo'lida, odatda, ko'pgina qiyinchiliklar, to'siqlar, muammolarga duch kelish mumkin. Bu muammolarni muvaffaqiyatli hal etgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Sog'liqni saqlashda menejment quyidagilarni amalga oshirish uchun zarur ko'nikmalarni yaratadi: ishlab chiqarish jarayonini o'zgartirish; sog'liqni saqlash ahvolini yaxshilash; natija, ta'sirni keltirib chiqarish.

Sog'liqni saqlashni boshqarish o'ziga xos xususiyatlarga ega, ularga quyidagilar kiradi:

- qabul qilinayotgan qarorlarning jamiyat ahamiyatiga ega ekanligi;
- ularni bashorat qilishning qiyinligi, chunki ular darhol samara bermaydi;
- noto'g'ri qabul qilingan qarorlarning oqibatini to'g'rilashning iloji yo'qligi, qiyinligi.

Boshqaruv odamlar bilan birga paydo bo'lgan. U mehnatni taqsimlanishi va kooperatsiyalanish jarayonida faoliyatning mustaqil turiga ajralgan. Bu odamlarning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi faoliyatini tashkil qilish va muvofiqlashtirish zarurligi bilan asoslangan. Bunda ulardan birlari rahbar, ya'ni boshqaruvchilar, boshqalari esa ularning tobelari, ya'ni boshqariladiganlar bo'ladilar. Boshqaruv muammosini

birinchi bo'lib hal qilishga qadimgi misrliklar kirishganlar. 6 mingga yaqin yillar oldin ular odamlar faoliyatini maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil qilish, uni rejalashtirish va natijasini nazorat qilish zarurligini tan olganlar, hamda boshqaruvni markazlash-tirmaslik haqida masalani qo'yganlar. Eramizga qadar 20 asrda Misrga qo'shni Vavilonda podshoh Xammurapi boshqaruv va nazorat qilish zaruriyati uchun sopol jadvallardagi hujjatlar va guvohlik ko'rsatmalarini qo'llagan, amaldor shaxslar tomonidan javobgarlikni o'z tobelariga o'tkazishga yo'l ko'ymaslikni tan olgan, ish haqi darajasini qonunan belgilagan. Eramizga qadar uchinchi ming yilliklar bilan sanalangan sopol jadvalchalarga tijorat bitimlari haqidagi ma'lumotlar va qadimgi Shumeriya qonunlari yozilgan, bu ham u yerda boshqaruv amaliyoti mavjudligidan darak beradi. 9 Boshqaruvga antik davrda ham ma'lum ulush qo'shilgan, bizning eramizdan 400 yil avval Suqrot boshqaruvning universalligi tamoyili shakllantirgan. Uning zamondoshi Eron shohi Kir odamlarni harakat qilishga undashini, ya'ni motivatsiyani maxsus tadqiqot qilish zarurligi haqidagi g'oyani ilgari surgan. U yana boshqaruv axborotlarini ishlab chiqish va rejalar tuzish muammosini ham ko'rib chiqqan. Biroz keyinroq Gretsiyada mehnat operatsiyalarini bajarish va ularning bir maromdaligini ta'minlash usullari bilan shug'ullanganlar. Platon ixtisoslashish tamoyilini shakllantirgan. Eramizdan avvalgi 325 yilda Iskandar Zulqaynayn birinchi marta jangovar harakatlarni boshqarish markazi sifatida shtabni tashkil qilgan. Qadimgi tashkilotlar ma'lum tuzilishga ega bo'lgan, unda boshqaruvchining darajalari ajratilgan. Yirik siyosiy tashkilotlar ham mavjud bo'lganlar, qirollar va generallar ularning rahbarlari bo'lganlar. Yana boshqaruvchilar, omborlarni saqlovchilari, mol haydovchilar, ishni nazorat qiluvchilar, xududlarning gubernatorlari va xazinachilar bo'lganlar, ular ushbu tashkilotlarning faoliyatini ta'minlashga yordam berganlar. Yillar o'tdi, ko'pgina tashkilotlarni boshqarish aniqroq va murakkabroq, tashkilotlarning o'zlari esa – kuchliroq va barqarorroq bo'la boshlaganlar. Rim imperiyasi bunga misol bo'lib xizmat qiladi, u yuz yillar mavjud bo'lgan. Boshqaruvning aniq tuzilishi bilan ajralib turuvchi, generallar va ofitserlardan tashkil topgan diviziyalarga bo'lingan rim armiyasi legionlari yomon tashkil qilingan Yevropa mamlakatlari, O'rta Osiyo

davlatlari orqali g'alaba marshi bilan o'tganlar. Bosib olingan xududlar Rimga bo'ysunuvchi gubernatorlar boshqaruviga berilgan, Rim bilan aloqa o'rnatish uchun yo'llar qurilgan.

Menejment tarixi bo'yicha ma'lumotlar shuni tasdiqlaydi-ki, ilmiy tamoyillarni tashkilotning unumdorligini ko'tarish uchun ishlatish imkoniyatlari konsepsiyasi menejment ilm sifatida hali boshlang'ich holatdalgida paydo bo'lgan. Ilmiy usulning menejment muammolariga muntazam ravishda qo'llanilishi ilmiy menejmentning asosi bo'lgan. Ammo menejment tafakkuri maktabining kelib chiqish tarixi yaqin davrlarga taalluqlidir.

Menejment ilmi Ikkinchi jahon urushi davrida Angliyada olimlar guruhi fuqarolar mudofaasi va o't ochish pozitsiyalari inshootlarini optimal joylashtirish, kemaga qarshi bombalarni portlatish chuqurligini va transport karvonlarining konvoyini optimizatsiyalash kabi murakkab harbiy masalalarni yechish topshirig'ini olganda paydo bo'lgan. 50-60-yillarda uslubiyot yangilanib, bir qator o'ziga xos usullarga aylanib, sanoatda muammolarni yechishda va har xil vaziyatlarda qaror qabul qilishda kengroq ishlatila boshlandi. Bugungi kunda menejment ilmining model va usullari quyidagi masalalarni hal qilishda ishlatiladi: shaharlarda transport oqimlarini boshqarish va aeroportlarda harakat jadvalini optimizatsiyalashda, universitetlarda sinf va auditoriyalar ish jadvallarini tuzishda, supermarket va univermaglarda g'amlangan mollarni boshqarishda, mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishda, turli xil mahsulotlarning reklamasiga xarajatlarni taqsimlashda, moddiy ta'minlashni rejalashtirishda, zavodda turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar va mehnat resurslarini taqsimlashda, mavsumga beysbol bo'yicha oliy liganing o'yin jadvalini tuzishda va h.k.

Menejment ilmining markaziy muammosi «tashkilot rahbarlarini tashkilotni bir butun holdagi jarayon sifatida uning manfaatlari uchun tashkilot tarkibiy qismlarining o'zaro munosabatlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishda ilmiy asos bilan ta'minlashdan» iborat. Bu hamma tashkilotlar uchun muhimdir, lekin bu tamoyilni yirik tashkilotlarda qo'llash ixtisoslashtirishning yuqori darajasi tufayli qiyin bo'lishi mumkin. Cherchmen, Akoff va Arnofflarning tasdiqlashicha:

«Tashkilotda har bir funksional birlik (bo'linma bo'lim yoki sektor) umumiy ishning bir qismini bajarishga majbur. Shu har bir qism tashkilotning umumiy maqsadlariga erishish uchun zarurdir. Biroq, mehnatning bunday taqsimlanishining natijasi har bir funksional bo'linma o'ziga tegishli bo'lgan maqsadlarni ishlab chiqishidan iborat. Masalan, ishlab chiqarish bo'limi, odatda, ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirish va ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bilan shug'ullanadi. Marketing bo'limi sotish hajmi birligi chiqimlarini minimumga keltirish va u hajmni maksimumga chiqarishga harakat qiladi. Moliya bo'limi tashkilotning sarmoya yo'naltirish siyosatini optimizatsiya qilishga urinadi. Kadrlar bo'limi yaxshi ishchilarni kam xarajat qilish asosida yollash va ularni tashkilotda ushlab qolishga bor kuchini sarflaydi. Bu maqsadlar har doim ham mohiyati bo'yicha bir-biri bilan kelishmasdan, ko'pincha bir-biriga zid bo'ladi».

Qaror qabul qilishni modellashtirish va munosib usullar bo'yicha idora xizmatlari mutaxassislari maqsadlar farq qilishi munosabati bilan bog'liq bo'lgan muhosabatlarni baholashga harakat qilib, qarama-qarshi maqsadlarning balansini ta'minlab beradigan alternativ qarorlarni aniqlamoqdalar. Menejment ilmi nuqtai nazaridan yondashuvni tushunish sizga idora mutaxassislari bilan unumli muomala qilishga va tashkilot muammolarining unumli yechimini aniq ifoda qilishda ular bilan ishlashga yordam beradi.

- - **boshqarishning tashkiliy funksiyalari**, ya'ni, ta'lim jarayonini tashkil qilish, o'zaro aloqalarni o'rnatish va muvofiqlashtirish, vazifalar taqsimlash, boshqarish apparat xodimlari o'rtasida ma'suliyatlarni belgilash va h.k.
- Qayd qilingan funksiyalar bir-biri bilan bog'liq va ma'lum darajada tartibga solingan ko'p unsurlardan, tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular yaxlitlikka ega. Shuning uchun ham boshqarish jarayonida ularning birortasi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.
- Boshqarishning funksiyalaridan yana biri – bu **tarmoqli boshqarish** bilan **hududiy boshqarishning** mutanosibligini ta'minlashdir. Har bir korxonada qandaydir bir tarmoqqa kiradi. Ayni vaqtda u bir tuman hududida joylashganligi jihatidan mahalliy ishlab chiqarish – hududiy majmuiga kiradi. Boshqarish jarayonida bu funksiya ham hududiy, ham tarmoq manfaatini ko'zda tutishi lozim. Tarmoqqa doir bo'gan boshqaruv funksiyalari zarur. Busiz

tarmoq «yo'qoladi», yagona texnik va texnologiya siyosatini amalga oshirish va butun tarmoqqa taaluqli boshqamasalalarni hal etish qiyin bo'ladi.

- Boshqarishning hududiy funksiyalari ham zarur. Bu funksiya muayyan tuman, viloyat xududida joylashgan turli tuman tarmoqlarga qarashli korxonalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, rasional aloqalarni o'rnatilishini ta'minlaydi.
- Qayd qilingan funksiyalardan tashqari boshqarishning o'ziga xos aniq funksiyalari ham bor.
- Boshqarishning o'ziga xos **aniq funksiyalari deganda** muayyan boshqaruv organiga va uning boshqaruvchisiga aniq biriktirilgan ishlar, mas'uliyat, maqsad va unga erishish vositalari majmui tushuniladi.
- Menejment jarayoni mazmuni uning funksiyalarida ko'rinadi. Menejment funksiyasi deyilganda boshqaruvga doir ma'lum masalalarni echishga yo'naltirilgan bir turli ishlar yig'indisi tushuniladi. Boshqaruv organlari va ijrochilar ma'suliyatli boshqarish funksiyasini belgilaydi. Bu vazifalar funksional bo'lim to'g'risidagi Nizom va mansabdor boshqaruvchilar uchun ko'rsatmalarda o'z ifodasini topadi. Boshqaruv jarayonining funksional tahlili har bir funksiya uchun ish hajmi asoslarini tashkil etadi, boshqaruvchilar sonini belgilaydi va boshqaruv tizimini loyihalashtiradi.
- g) muvofiqlashtirish - texnik, iqtisodiy, ijtimoiy masalalarni birga hal etishda barcha boshqaruv funksiyalarining kelishi. Bundan o'zaro aloqa o'rnatiladi, amaldagi me'yori va me'yoriy hujjatlardan chetlanilsa ogohlantiriladi.
- d) rag'batlantirish - bu inson omilini keng demokrataya asosida faollashtirish, uning manfaatlari yo'lida g'amxo'rlik qilishni boshqarish;
- e) hisob va nazorat - bu boshqariluvchi tizim holatining nazorat va hisobga olish, ishni bir me'yorda ta'minlashni boshqarish.
- Agar boshqariluvchi ob'ekt o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa, boshqaruv funksiyalari ham faoliyat ko'rsatadi. Biroq, korxonada quyidagi funksiyalarni ajratish mumkin:

- a) asosiy ishlab chiqarishni boshqarish;
- b) yordamchi ishlab chiqarishni boshqarish;
- v) mahsulot sifatini boshqarish;
- g) mehnat va ish haqini boshqarish va boshqalar.
- Har bir aniq funksiya menejment funksiyasining tarkibiy qismi bo'lib, ular o'z navbatida yana bir necha qismga bo'linadi. Masalan, asosiy ishlab chiqarishni boshqarish, marketing, rejalashtirish, rag'batlantirish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Hamma funksiyalar o'zaro aloqada bo'ladi.
- Ko'rsatkichtushunchasibaholanayotganpredmetning, ob'ektningqandaydirxususiyatlarini, jihatlarini, tomonlarinitavsiflaydi. Boshqaruv samaradorligini belgilaydigan ko'rsatkichlarni uch guruhga bo'ish mumkin:
 - Texnikaviy ko'rsatkichlar. Butur ko'rsatkichlar boshqaruvning texnik vositalarini (dastgohlar, hisoblash texnikalari va boshqalar) foydalanishning sifatlarini, belgilarini va ulardan foydalanish darajasini aniqlaydi.
 - Tashkiliy ko'rsatkichlar. Bu tur ko'rsatkichlar boshqaruv jarayoninig tuzilishi, tashkiliy tuzilma, axborot va hujjatlar bilan ishlashni aniqlovchi tavsifga egadir.
 - Ijtimoiy ko'rsatkichlar. Bu tur ko'rsatkichlar boshqaruv apparatining mehnat shartlarini, sanitariyagigiena, ruhiy, fiziologik, estetik tomonlarini va mehnatining ijtimoiy omillarini aniqlaydi.
 - Boshqaruv samaradorligining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari quyidagilardir:
 - yillik iqtisodiy samara (keltirilgan harajatlar tejamkorligi);
 - boshqaruvni takomillashtirishda birvaqtli harajatlarini qoplash muddati;
 - boshqaruv apparati mehnat unumdorligining o'sishi.
 - Yillik iqtisodiy samara quyidagi tenglama orqali aniqlanadi: $E_y = E_{shy} - Z_u X E_n$
 - Bunda: E_y - yillik iqtisodiy samara, so'm;

- E_{shy} – yillik shartli tejam, so'm;
- Z_u – birvaqtli harajatlar, so'm;
- E_n – solishtirma iqtisodiy samaradorlikning me'yoriy koeffitsienti (o'lcham, qoplashning qaytame'yoriy muddatigabog'liq).
- Boshqaruv samaradorligi ikki xil usulda hisoblanishi mumkin:
- $E_b = R_k / Z_b$ va $E_b = R_b / Z_b$.
- Bunda, E_b – boshqaruv samaradorligi;
- R_k – oxirgi natija (samaradorlik korxonadan olinadi).
- R_b – faqat boshqaruv apparati faoliyati natijasi;
- Z_b – boshqaruv harajatlari;
- Birvaqtli xarajatlar boshqaruvda quyidagicha aniqlanadi:
- $Z_b = K + N$.
- Bunda, K – capital xarajatlar, so'm;
- H – capital bo'lmagan xarajatlar.

4. Bozorning menejment funksiyasiga ta'siri

- Bozor muhitining tez o'zgarishi korxonaga doim "tashvish" keltirib turadi. Aholi daromadi, xarid qilish qobiliyati, mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talab, demografik sharoit tee-tez o'zgarib turadi.
- Masalan, aholi turmush darajasining o'sishi diltortar tovarlarga ehtiyojni oshiradi. SHunday tovarlarga talabni qondirgan korxonada katta foyda oladi. Bozor munosabatlarining o'zgarishi ishlab chiqarish va boshqarishning o'zgarishini talab etadi. Menejment funksiyasini o'zgartirishga ehtiyoj tug'iladi. Yana quyidagilar qayta ko'riladi:
- rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish, hisobga olish, nazorat qilish va boshqalar.
- Bozor munosabatlariga o'gish, barcha Nizom, yo'riqnomalar qonunga zid me'yoriy huquqiy hujjatlarni qayta qurishni talab etadi. Boshqarish, lizing,

moliya va kredit, narx belgilash va rejalashtirishda yangi nizomlar qabul qilinadi. O'yi va yuqori tashkilotlar o'rtasida oshkorlik kengayadi, boshqaruv organlari funksiyasi o'zgaradi.

- Mehnatning pirovard natijasiga qarab xodimlarni rag'batlantirish ko'ndalang turadi. Bunda moddiy rag'batlantirish bilan birga xodimlarni ma'naviy rag'batlantirish usuli qo'llaniladiki, aksariyat hollarda u katta samara beradi.
- SHunday qilib menejment funksiyasi hech qachon so'nmaydi, u doim aniq milliy holatlarni hisobga olgan holda, hamda inson ruhiyatidagi o'zgarish jarayonlariga qarab takomillashaveradi.
- Ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirishni loyihalashtirishning barcha bosqichlarida iqtisodiy samaradorlik asosiy mezon hisoblanadi. Ishlab chiqarish boshqaruvini takomillashtirishning loyihalashtirish oldi bosqichida, takomillashtirish nimadan iborat bo'ladi boshqaruvning yangi tizimi yuqori darajada samaradormi degan savollar tug'iladi. Loyihalashtirish bosqichida investitsiya hajmidan, xarajatlar guruhidan kelib chiqib yuqori iqtisodiy samaradorlikni iniq usullarini hisoblab chiqiladi. Boshqaruvni takomillashtirishda aniq tadbirlar ishlab chiqilgandan so'ng qo'llanilgandan keyin haqiqiy erishilgan tejamkorlik o'lchovi aniqlanishi zarur.
- Boshqarish samaradorligi o'z tabiati bilan murakkab jarayon. Uni faqat bitta yoki ikkita ko'rsatkich bilan ifodalab bo'lmaydi. Buning uchun ko'rsatkichlar tizimi zarur. Bu tizimni ikkita yirik guruhga bo'lish mumkin:
- *Boshqarish tizimi faoliyatini tavsiflovchi miqdoriy ko'rsatkichlar, ya'ni:*
- boshqaruvdagi jonli mehnatning tejalishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- boshqaruv uchun sarflangan moliyaviy resurslarning tejalishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- boshqarish uchun sarflanadigan vaqtni tejalishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.
- *Boshqaruvning ijtimoiy samaradorligini tavsiflovchi sifat ko'rsatkichlari, ya'ni:*

- boshqarishning ilmiy-texnik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- boshqaruv apparati xodimlarining malakasi darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar;
- qabul qilingan qarorlar samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar;
- boshqaruv jarayonidagi axborotlarning ishonchliligi va to‘liqligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- boshqarish madaniyatini tasiflovchi ko‘rsatkichlar;
- kommunikatsiyaning samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- boshqaruv apparatidagi mehnat sharoitini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va hk.
- Boshqaruv samaradorligiga baho berish uchun juda ko‘p turli-tuman miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari qo‘llaniladi. Har bir ko‘rsatkichni quyidagi tarzda taqsimlash kerak:
- biror davr haqiqiy ko‘rsatkichlarini rejadagi, normativdagi ko‘rsatkichlar bilan;
- joriy davr haqiqiy ko‘rsatkichlarini o‘tgan davrlar ko‘rsatkichlari bilan;
- bir korxonaga haqiqiy ko‘rsatkichlarini boshqa korxonaga haqiqiy ko‘rsatkichlari bilan.
- Shundagina iqtisodiy tahlil ham makon, ham zamon nuqtai nazardan amalga oshirilgan bo‘ladi.
- Unumdorlik ko‘rsatkichi bo‘yicha menejment – bu samarali boshqaruv deganidir. Barqaror yuqori unumdorlikni ta‘minlash barcha menejment vazifalari va biriktiruvchi jarayon - kommunikatsiya, qaror qabul qilish va peshqadamlikni ta‘minlashga taalluqlidir.
- Korxonaga o‘zarobir-biriga bog‘liq unsurlardan iborat tizim nuqtai nazaridan qarash zarur. Tashkilot unsurlari hamda tashkilotning tashqi muhit bilan bir-biriga juda bog‘liqligi tufayli muammolar oson va tez haletiladi. Boshqa tashkiliy muammolar kabi kelajakda unumdorlikni oshirish muammosi ham majmuiy yondashuvni talab qiladi. Unumdorlikka ham tashqi muhitning, ham

tizim o'zgarish jarayonining turli omillari tasir etadi. Bu omillar bir-biriga ta'sir etishi sababli, unumdorlikni oshirishning o'zgarmas (yagona) yo'li mavjud bo'lmaydi. Unumdorlikni oshirishga qaratilgan ko'plab urinishlar korxonalar rahbarlari o'z harakatlari natijasini ko'ra bilmaganliklari sababli muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. O'z korxonasi unumdorligiga baho berishda eng ko'p yo'l qo'yiladigan xato sifatga e'tibor bermay faqat ishlab chiqarish hajmi ko'rsatmalarini hisobga olishdir.

- So'nggi yillarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan korxonalar tajribasi sifat xarajatlar majmuining muhim unsuri ekanligini namoyon qilmoqda. Yuqori sifat sotish mumkin bo'lgan mahsulot hajmining ortishi, xaridorlar tomonidan qaytariladigan mahsulot miqdori va kafolatli ta'mirlash hajmining qisqarishi hisobiga xarajatlar kamayishi-ga olib keladi. Natijada kompaniya o'z raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini kengaytirishga sarflash uchun qo'yimcha mablag'ga ega bo'ladi. Yuqori sifat sotuv hajmini oshiradi, ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirishga, foydani ko'paytirishga imkon yaratadi.
- Atrof-muhit ifloslanishi darajasini kamaytirish, ish joyi sanitariya xolatini yaxshilash va korxonalar ishchilari sog'lig'ini himoya qilish uchun korxonalar qimmat uskunalari (masalan, tutun tutgichlar) sotib olishlari kerak, bu esa xarajatlar ko'payishiga olib keladi. Istiqbolda atrof-muhitni yaxshilash va mehnatni muhofaza qilish ish vaqtini taqsimlashga va natijada mehnat unumdorligi ortishiga olib keladi.

Tegishli funksiyalarning to'la-to'kis va sifatli bajarilishiga umumiy rahbarlar – direktor, uning o'rinbosarlari, bug'im va bo'limlar boshliqlari shuningdek, xizmat ko'rsatish bo'limlari rahbarlari va boshqalar mas'uldirlar.

Menejment jarayoni mazmuni uning funksiyalarida ko'rinadi. Menejment funksiyasi deyilganda boshqaruvga doir ma'lum masalalarni yechishga yo'naltirilgan bir turli ishlar yig'indisi tushuniladi. Boshqaruv organlari va ijrochilar ma'suliyatli boshqarish funksiyasini belgilaydi. Bu vazifalar funksional bo'lim to'g'risidagi Nizom va mansabdor boshqaruvchilar uchun ko'rsatmalarda o'z

ifodasini topadi. Boshqaruv jarayonining funksional tahlili har bir funktsiya uchun ish hajmi asoslarini tashkil etadi, boshqaruvchilar sonini belgilaydi va boshqaruv tizimini loyihalashtiradi.

g) muvofiqlashtirish - texnik, iqtisodiy, ijtimoiy masalalarni birga hal etishda barcha boshqaruv funksiyalarining kelishi. Bundan o'zaro aloqa o'rnatiladi, amaldagi me'yor va me'yoriy hujjatlardan chetlanilsa ogohlantiriladi.

d) rag'batlantirish - bu inson omilini keng demokrataya asosida faollashtirish, uning manfaatlari yo'lida g'amxo'rlik qilishni boshqarish;

ye) hisob va nazorat - bu boshqariluvchi tizim holatining nazorat va hisobga olish, ishni bir me'yorda ta'minlashni boshqarish.

Agar boshqariluvchi ob'ekt o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa, boshqaruv funksiyalari ham faoliyat ko'rsatadi. Biroq, korxonada timsolida quyidagi funksiyalarni ajratish mumkin:

a) asosiy ishlab chiqarishni boshqarish;

b) yordamchi ishlab chiqarishni boshqarish;

v) mahsulot sifatini boshqarish;

g) mehnat va ish haqini boshqarish va boshqalar.

Har bir aniq funktsiya menejment funksiyasining tarkibiy qismi bo'lib, ular o'z navbatida yana bir necha qismga bo'linadi. Masalan, asosiy ishlab chiqarishni boshqarish, marketing, rejalashtirish, rag'batlantirish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Hamma funksiyalar o'zaro aloqada bo'ladi.

Bozorning menejment funksiyasiga ta'siri

Bozor muhitining tez o'zgarishi korxonaga doim "tashvish" keltirib turadi. Aholi daromadi, xarid qilish qobiliyati, mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talab, demografik sharoit tee-tez o'zgarib turadi. Masalan, aholi turmush darajasining o'sishi diltortar tovarlarga ehtiyojni oshiradi. Shunday tovarlarga talabni qondirgan korxonada katta foyda oladi. Bozor munosabatlarining o'zgarishi ishlab chiqarish va boshqarishning o'zgarishini talab etadi. Menejment funksiyasini o'zgartirishga ehtiyoj tug'iladi. Yana quyidagilar qayta ko'riladi: rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish, hisobga olish, nazorat qilish va boshqalar.

Bozor munosabatlariga o'gish, barcha Nizom, yo'riqnomalar qonunga zid me'yoriy huquqiy hujjatlarni qayta qurishni talab etadi. Boshqarish, lizing, moliya va kredit, narx belgilash va rejalashtirishda yangi nizomlar qabul qilinadi. Quyi va yuqori tashkilotlar o'rtasida oshkoralik kengayadi, boshqaruv organlari funksiyasi o'zgaradi.

Mehnatning pirovard natijasiga qarab xodimlarni rag'batlantirish ko'ndalang turadi. Bunda moddiy rag'batlantirish bilan birga xodimlarni ma'naviy rag'batlantirish usuli qo'llaniladiki, aksariyat hollarda u katta samara beradi.

Shunday qilib menejment funksiyasi hech qachon so'nmaydi, u doim aniq milliy holatlarni hisobga olgan holda, hamda inson ruhiyatidagi o'zgarish jarayonlariga qarab takomillashaveradi.

Menejment butun boshqaruv tizimining uzluksiz amal qilishi jarayonini ifodalaydi. U mehnat jarayonining barcha xususiyatlariga ega. Umuman menejment jarayonini texnologiya (qanday amalga oshiriladi), tashkil etish (kim va qanday tartibda) nuqtai nazaridan tavsiflash mumkin. Boshqaruv jarayoni mazmunining uch jihatini ajratish mumkin: texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy.

- Texnikaviy jihatdan bu mahsulot ishlab chiqarish, metall yoki neft ajratib olishni boshqarish;
- ishlab chiqarishda - bu ishlab chiqarishni tashkil etish jarayoni, ya'ni bo'linma, sex, korxonalar o'zaro ta'sirini boshqarish;
- iqtisodiy jihatdan ishlab chiqarish, ish kuchi va butun iqtisodiy munosabatlar tizimiga rahbarlik qilish;
- ijtimoiy jihatdan - bu mehnat jamoasi ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, insonni tarbiyalashdir.

Boshqaruv jarayoni texnologiyasi boshqaruv xodimlari tomonidan bajariladigan operatsiya va amallardan iboratdir.

Shunday qilib, menejment jarayoni rahbar va boshqaruv apparatining qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun kishilarning birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha maqsadli harakat qilishidir.

U tizimning holatini baholash, uni yaxshilash yo'llarini izlash yoki undagi salbiy xislatlarni bartaraf qilish bilan bog'liq ishlarni tavsiflaydi. Muammo bosqichida tizimning hozirgi holatining uni rivojlantirish maqsadiga nisbatan mavjud qarama-qarshiliklarini aniqlash ko'zda tutiladi. Qaror qabul qilish bosqichi rahbarning amalda tashkiliy faoliyatiga o'tishini ifodalab, qaror qabul qilish bilan boshqariladigan tizimga ta'sir o'tkazila boshlanadi.

Bular axborot olish va qayta ishlash vositalari va an'anaviy orgtexnika vositalaridir. Boshqaruv operatsiyasini amalga oshirish usullari - axborot-tahlil va tashkiliy faoliyatdir. Axborot-tahlil faoliyat axborot yig'ish, saqlash, tarqatish va qayta ishlash; tahlil, hisob, qarorlar variantlarini ishlashdan iborat; tashkiliy faoliyatga - tushuntirish, ishontirish, rag'batlantirish va vazifalarni taqsimlash usullari, faoliyatni nazorat qilish, majburlash va h.zo.lar kiradi. Boshqarish uchun faqat nimani qanday qilishni hal etish emas, balki tashkil etish, qiziqtirish, ishontirish, tushuntirish, nazorat qilish ham zarur. Ayni shu operatsiyalar yig'indisidan rahbarning tashkiliy faoliyati tashkil topadi.

Boshqaruv jarayonini tashkil etishda biznes-reja va ta'minot, moliyalashtirish va biznes-reja; narxni belgilash va kredit berish funksiyalarini bog'lashni ta'minlash, boshqaruv tizimi ayrim unsurlarini (maqsad-usul, maqsad va kadrlar, qarorlar va usullar, usullar va tarkib) muvofiqlashtirish, boshqaruv kadrlarini tayyorlash, fan-texnika yutuqlarini joriy etishni ta'minlash zarur.

Korxonalariga erkinlik va mustaqillik berilishi bilan hal qilinishi lozim bo'lgan boshqaruv jarayonini tashkil etish bilan bog'liq muhim muammo rasman bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan boshqaruv tashkilotlari o'rtasidagi gorizontal aloqalarni amalga oshirish bo'lib qoldi (masalan, korxonalar va mahsulot iste'molchilari, xom ashyo bilan ta'minlovchilar va korxonalar o'rtasida va h.zo.).

Rejalashtirish boshqarishning barcha boshqa funksiyalarini-tashkil etish, yo'lbo'shchilik (qiziqtirish) va nazoratni sezilarli darajada aniqlab beruvchi menedjmentning muhim funksiyasi hisoblanadi. Har qanday tashkilot o'z faoliyatini amalga oshirayotganda, u nimaga intilayotganini va u uchun harakatning

qanday yo'llari eng muvaffaqiyatli bo'lishi mumkinligini bilishi lozim. Shuning uchun maqsadlar va rejalar tushunchasi bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Rejalashtirish - bu kelajakdagi faoliyatning maqsadlari va natijalarini aniqlash, shuningdek vazifalarni belgilash va ularni hal qilish uchun zarur bo'lgan resurslarni baholash.

Reja, qaysidir ma'noda, tashkilot maqsadlariga erishish uchun "yo'nalish" dir. Rejalar yozma ko'rinishda rasmiylashtiriladi va barcha ish turlari vaqti, ijrochilari va talab etiluvchi vositalar bo'yicha yozib qo'yilgan muassasaning rasmiy hujjati hisoblanadi.

Boshqaruvning umumiy vazifalari:

- rejalashtirish
- joriy etish
- qiziqtirish
- nazorat

“**STRATEGIYA**” so'zi “strategos” grek so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “generalning san'ati” ma'nosini anglatadi. U hozir ham o'z ma'nosida harbiy boshliq tarkibining harbiy operatsiyalarini rejalashtirish san'atini bildiradi.

Rejalar yozma ko'rinishda rasmiylashtiriladi va barcha ish turlari vaqti, ijrochilari va talab etiluvchi vositalar bo'yicha yozib qo'yilgan muassasaning rasmiy hujjati hisoblanadi.

Maqsadlar ko'lam va vaqt doirasiga ko'ra quyidagilarga ajratiladi:

- global maqsadlarni ko'zda tutuvchi va asosan uzoq muddatga mo'ljallangan (3-5 yil va undan ko'proq) strategik rejalar;
- taktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan va o'rta muddatli davrga (1-2 yil) mo'ljallangan biznes-rejalar;
- qisqa muddatli maqsadlar va joriy vazifalarga erishishga yo'naltirilgan hamda bir yilgacha bo'lgan davrni qamrab oluvchi operatsion rejalar.

Strategik rejalashtirish – bu global maqsadlarga erishishning muqobil yo'llarini, shuningdek ushbu maqsadni amalga oshirish uchun zarur resurslarni

aniqlash jarayonidir. Uning yordamida qaysi ehtiyojlar qanday, kim tomonidan, qachon va qanday vositalar bilan qondirilishini, maqsadga erishish uchun nima qilinganligini aniqlash mumkin. Uning yordamida muassasa faoliyatini kuzatish (monitoring) amalga oshiriladi.

Strategik rejalashtirish, biznes rejalashtirish va operatsion rejalashtirish bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir, asosan- bu global, o'rta muddatli va qisqa muddatli maqsadlarni o'zgartiruvchi (aniqlik kirituvchi), ularni o'zaro, shuningdek tashqi muhitning o'zgaruvchanligi sharoitida muassasa faoliyatining sarflari va natijalari bilan muvofiqlashtiruvchi yagona uzluksiz jarayondir. Rejalashtirishning u ko'rinishida ham, boshqa ko'rinishida ham turli tasodifliklarni oldindan ko'ra bilish va ularni bartaraf etishga tayyor bo'lish qobiliyati juda muhim.

Strategik rejalashtirishning muhimligi haqida gapirganda shuni nazarda tutish zarurki, u o'z-o'zidan muvaffaqiyatni kafolatlamaydi. Xuddi yaxshi dvigatelli avtomobil, agar u sifati past benzin bilan ta'minlangan bo'lsa, harakatlana olmasligi kabi, strategik rejani tuzuvchi muassasa ham, tashkil etish, qiziqtirish va nazorat qilishdagi xatoliklar tufayli omadsizlikka uchrashi mumkin. Shunga qaramay, rejalashtirish muassasa uchun qator muhim qulay shart-sharoitlar yaratishi mumkin.

Strategik rejalashtirishni qo'llab, qanday naflar olish mumkin? Avvalo, u boshqarishni takomillashtirishga imkon beradi:

- faoliyat natijalarini mukofotlash bilan bog'lab, yaxshi hisobga olish va nazoratni ta'minlaydi;
- ko'proq o'ylashga va strategik masalalarga e'tiborni qaratishga yordam beradi;
- tashqi omillarga e'tiborni oshiradi;
- rahbardan ijrochilarga axborotni yetkazish tizimini yaxshilaydi;
- aniqroq va to'g'riroq maqsadlarni belgilab va ular haqida xodimlar, sheriklar va yuqori tashkilotlarga axborot berib turadi;
- quruq raqamlar ortidagi haqiqiy ishlarni ko'rishga o'qitib boradi.

Strategik rejalashtirish boshqarish vositasi sifatida

Strategik rejalashtirish boshqarish faoliyatining bajariladigan ishlarning andozaviy chizmalari va tartibi ishlab chiqilmagan ko'rinishi hisoblanadi. Ammo, ko'plab

korxonalar va tashkilotlarning tajribasiga tayangan holda, rejalashtirish jarayonining modelini quyidagicha tasavvur etish mumkin:

Strategik rejalashtirish jarayoni

Kuchli va kuchsiz tomonlarni rahbariy taftishi

Kuchli va kuchsiz tomonlarni rahbariy

Tashqi muhitni baholash va tahlil etish

Strategiyani baholash

Strategiyani amalga oshirishni boshqarish

Strategiyani amalga oshirish

Muqobil strategiyalarni tahlil qilish va strategiyani belgilash

Tashkilot maqsadi

MISSIYA VA MAQSADLARNI TANLASH

Rejalashtirishning birinchi va eng muhim bosqichi yoki qismi muassasa maqsadlarini tanlash hisoblanadi, chunki barcha keyingi harakatlar aynan ularga bog'liq bo'ladi. Muassasaning asosiy umumiy maqsadini, ya'ni uning mavjudligini aniq ifodalovchi sababni missiya deb ataydilar va maqsadlar uni amalga oshirish uchun ishlab chiqiladi. Shuning uchun muassasa rahbarlari missiyani ifodalashga diqqat bilan yondashishlari lozim. Rahbarlar DPMlari ochiq tizim hisoblanishini va u faqat agar ushbu muassasadan tashqarida bo'lgan qandaydir ehtiyojni qondira olsagina muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkinligini, ya'ni uning umumiy maqsadini atrof muhitda izlash zarurligini nazarda tutishlari kerak.

Mos keluvchi missiyani tanlash uchun rahbariyat «Bizning mijozlar kim?», «Biz mijozlarimizning qanday ehtiyojlarini qondirishimiz mumkin?» degan savollarga javob berishi lozim. DPM o'zi xizmat ko'rsatayotgan aholining, shuningdek o'z xodimlarining va u o'zi faoliyatni amalga oshirayotgan mahalliy

hamjamiyatning ehtiyojlarini qondirishi lozim. Tashqi muhitni baholash va tahlil etish.

Strategik rejalashtirish jarayonining keying bosqichi muassasa uchun katta imkoniyatlarni yoki tahdidlarni beruvchi tashqi omillarni baholash maqsadida atrof muhitni o'rganish va tahlil qilish hisoblanadi.

Bu omillarni shartli ravishda nisbatan olti tayirik guruhga: iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, siyosiy, ekologik omillarga va madaniy muhitga ajratish mumkin.

Iqtisodiy omillar – inflyatsiya sur'atlari, ishsizlik darajasi, ayirboshlash kurslari, soliq stavkalari miqdori muassasa faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi, bunda ular bir vaziyatda muvaffaqiyatliroq rivojlanish uchun imkoniyatlar berishi, boshqa vaziyatlarda – tahdid solishi mumkin.

Ijtimoiy omillar jamiyatda ustun munosabatlarni, masalan tadbirkorlikka, demokratlashtirishga, shuningdek mahalliy hamjamiyatlar va ijtimoiy birlashmalarning rivojlanganligini o'z ichiga oladi.

Demografik omillar – aholini o'sish sur'atlari, uning yoshi-jinsi bo'yicha tarkibi muassasa ko'lamini va ishining xususiyatini bevosita aniqlaydi. Demografik jarayonlar tug'ilish, o'lim va migratsiya kabi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Bu jarayonlarni tahlil qilish uchun tug'ilish, o'lim va migratsiya darajasi, shuningdek, aholining yosh va jins tarkibini hisoblash kabi statistik ko'rsatkichlardan foydalaniladi.



Siyosiyomillar – davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, siyosiy barqarorlik va jamiyatni demokratlashtirish muassasa strategiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ekologikomillar – DPM xizmat ko'rsatadigan hududda zararli ishlab chiqarishlarning mavjudligi, havoning ifloslanganligi va ichimlik suvi sifatining yomonligi aholining kasallanish darajasi va xususiyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi mutaxassislarning baholashiga ko'ra odamlar salomatligi holati 20-22 foiz aynan shu omillar bilan aniqlanadi. Madaniy muhitda faoliyat qimmatliklari, bir xilliklar va andozalar shakllanadi, odamlarning shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarining xususiyati aniqlanadi. Kuchli va zaif tomonlarni boshqaruv ko'rigidan o'tkazish. Strategik rejalashtirish jarayonining keying bosqichi-rahbariyat tomonidan tashqi imkoniyatlardan foydalanish uchun muassasaning ichki kuchlarini va tashqi xavflarning ta'sirini bartaraf etish uchun uning zaif tomonlarini baholashdir. Muassasa faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash maqsadida turli bo'limlarini muntazam tahlili boshqaruv ko'rigidan o'tkazish, deb ataladi.

Muassasaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashda asosan uning faoliyatini bir nechta muhim bo'limlariga e'tiborni qaratish mumkin.

Strategik rejani amalga oshirish. Strategik rejalashtirish faqat u amalga oshirilganda, ya'ni resurslarni talab etuvchi muayyan faoliyatda gavdalangandagina ma'noga ega bo'ladi.

Faoliyatni muvaffaqiyatli boshqarish uchun rahbariyat tartib va qoidalarini ishlab chiqadi. Tartiblar muayyan vaziyatda qo'llash kerak bo'lgan harakat ketma-ketligini ifodalaydi va tartiblarga muvofiq harakat qilayotgan xodim ma'lum darajada harakat erkinligiga ega bo'ladi. Masalan, xodimlarni attestatsiya qilish tartibi yoki ularni moddiy rag'batlantirish tartibi. Biroq, rejalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish topshiriqni aniq bajarishga bog'liq bo'lganda, rahbariyat erkin tanlashni to'la cheklashi mumkin va buning uchun muayyan vaziyatda nima qilinishi lozimligini aniq belgilovchi qoidalarini ishlab chiqadi, masalan, ishga qabul qilish qoidasi, ish kuni tartibi qoidasi va shu kabilar. Strategik rejalashtirishni amalga oshirishni boshqarish va uni baholash. Byudjetlar strategic rejani amalga oshirishni

boshqarish, rejalashtirish va nazoratni muvofiqlashtirishning eng muhim vositasi bo'lib hisoblanadi. Resurslarni samarali taqsimlash rejalashtirishning asosiy vazifasi hisoblanadi, biroq rejalarda ko'pincha muhim masalalar, masalan, aynan qanday resurslar mavjud, maqsadlarga erishish uchun ulardan aynan qanday foydalanish kerak va mavjud resurslardan foydalanib qanday maqsadlarga erishish mumkinligini hisoblash kabi masalalar hal etilmay qoladi.

Bu savollarga javob berish va rejalarda ko'zlangan harakatlarni resurslar tomonidan asoslash uchun rahbariyat byudjetlarni ishlab chiqadi. Strategik rejalashtirish jarayonining muhim qismi uni baholash hisoblanadi – muassasa rahbariyati faqat u harakat modelini rejalashtirgani va ularni amalga oshirgani uchungina muvaffaqiyatga umid qilishi mumkin emas. Strategik rejalashtirish – bu rahbariyat tomonidan doimo qo'llab-quvvatlanadigan, rag'batlantiriladigan va baholanadigan, yuqoridan pastga boruvchi jarayon. U yuz bermaganda, jarayonning o'zi to'xtaydi. Shuning uchun strategic reja rasmiy baholanishi, ya'ni aniq mezonlar va tartiblar asosida tekshirilishi lozim.



Biznes-rejalashtirish-bu tashkilot o'zining aniq vazifalarini belgilab olishida, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishida mavjud imkoniyatlardan foydalanishiga imkon beruvchi jarayondir. Dastlab biznes-rejalashtirish xususiy

bo'g'in tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan bo'lishiga qaramasdan, uning tub tamoyillari sog'liqni saqlash muassasalarining birlamchi bo'g'inlarida ham tibbiy xizmat ko'rsatishni sifat va samaradorligini oshirish maqsadida qo'llanishi mumkin.

Biznes-rejalashtirish DPMning rahbarlariga:

- ish kontseptsiyasini va kelajak rejasini tushunib yetishida;

-muassasa faoliyatining ma'lum vaqt oralig'ida erishgan natijalarini doimo tadqiq etish va ishning samarasi-unumdorligini oshirish uchun o'z vaqtida chora qabul qilishida;

-qo'shimcha mablag' manbalarini aniqlash va jalb etish uchun reja tuzishda, yordam beradi:

Biznes-reja-bu shunday xujjatki, firmaning unda o'z ishini qanday boshlashi, qanday ishlab chiqarishini samarali yurgizish va tovarni bozorga olib chiqishi, qanday texnologiyani qo'llashi, qachon dastlabki daromad olishi, tavakkalchilik (risk) ni kamaytirishi, sarf-xarajat darajasi va foyda olishi, raqobat kurashida yutib chiqish kabi ko'rsatkichlarning loyihasi o'z aksini topadi.

Beznereja korxon (firma)ning rivojlanish strategiyasini belgilab beradigan asosiy hujjatlardan biridir. Shu bilan birga firma taraqqiyotining umumiy kontseptsiyasiga asoslanadi, strategiyaning iqtisodiy va moliyaviy jihatlarini birmuncha batafsil bayon etadi, aniq-tayin chora-tadbirlarni texnik iqtisodiy jihatdan asoslab beradi.

Boshqacha qilib aytganda, biznes-reja tadbirkor uchun go'yo bir ish qurolidir, aniqrog'i, kompasdir. U firmaning ish jarayonini tasvirlab, firma rahbarlarining o'z maqsadlariga qay tariqa erishishlarini, birinchi galda ishning daromaddorligini qay tariqa oshirish mumkinligini ko'rsatib beradi. Yaxshi ishlab chiqilgan biznes-reja firmaga:

-o 'sib borishga

-bozorda yangi mavqelarni qo 'lga kiritishga;

-o'z taraqqiyotining istiqbollarni belgilab olishga;

-yangi tovarlar ishlab chiqarish va yangi xizmat turlarini yaratishga;

-yangi mo'ljallangan amalga oshirishning maqsadga muvofiq jusullarini

tanlab olishga yordam beradi;

Bozor munosabatlari rivojlangan sari rejaning ahamiyati tobora oshib boradi. Biron-bir ishlab chiqarish, xususan, tijorat g'oyasini rejasiz amalga oshirib bo'lmasligini xorijiy biznesmenlar allaqachon tushunib etganlar. Bu erda gap awalgi besh yillik rejalarimiz haqida bormayapti. Xorijiy mamlakatlarning "Besh yillik rejaları" butunlay boshqacha usulda tuziladi. Ularni biznes-reja deb yuritishadi.

Agar o'z faoliyatingizni biznes-rejasiz boshlaydigan bo'lsangiz, tez kunlar ichida inqirozga uchrab, sinishingiz turgan gap! Hayron qolmang, chunki jahon amaliyotidan bizga ma'lumki, biznes-reja ishbilarmonning hammasi uchun juda zarur, go'yoki suv bilan havodek.

Nega deganda, biznes-reja-bu shunday narsaki, uning yordamida siz ko'p ishlarni bajarishga qodirsiz. Masalan, siz o'z loyihangizni amalga oshirmoqchi yoki sotmoqchisiz. Buning uchun esa sizga lozim bo'lgan mablag'ni bankdan qarzga olish paytida bankirni o'zingizning biznes-rejangizdan xabardor etishingiz shart.

Bundan tashqari, bu narsa, o'z kelajagini bilishni xohlagan va o'z vazifasini aniq hamda puxta tushunish niyatida yurgan kasbdoshlaringiz, to'g'rirog'i xodimlaringiz uchun ham, eng avvalo yuqorida ta'kidlaganimizdek o'zingiz uchun ham juda keraklidir.

Biznes-reja korxonaning ichki hujjati bo'libgina qolmay, balki undan investorlar va kreditorlarni taklif qilishda ham foydalanish mumkin. Investorlar tavakkal qilib sarmoya berishdan awal loyihaning sinchiklab ishlab chiqilganiga ishonch hosil qilishlari va uning samarali ekanligidan xabardor bo'lishlari kerak.

Ular sarmoya berish imkoniyatlarini ko'rib chiqishdan oldin biznes-rejani sinchiklab o'rganib chiqishadi. Shundan so'ng ular loyihani ishlab chiqqanlar bilan uchrashadilar. Korxonada o'z faoliyatini biznes-rejasiz boshlar ekan, u albatta inqirozga uchrashi muqarrar.

Muvaffaqiyatli tuzilgan biznes-reja korxonaning holatini chuqur tahlil qilishga hamda uning istiqboldagi rivojlanishiga xolisona va ob'ektiv baho berishga yordam beradi. U muhim hujjat hisoblanadi. Shuning uchun ham uni begona

odamlarga, shuningdek korxonada boshqaruviga aloqador bo'lmagan shaxslarga berish ta'qiqlanadi.

Biznes-reja bozor ehtiyojini inobatga olgan holda firmaning qisqa va uzoq muddatga mo'ljallash, shuningdek zaruriy resurslarni olish maqsadida tuziladi. U tadbirkorga quyidagi vazifalarni bajarishga, ya'ni:

- firma faoliyatidagi aniq yo'nalishni, maqsadli bozorlar va u bozorlarda firmaning o'rnini aniqlashga;
- firmaning qisqa va uzoq muddatli maqsadini belgilash va ularni amalga oshirish taktikasi hamda strategiyasini ishlab chiqishga. Har bir strategiya ijrosini ta'minlovchi ma'sul, javobgar shaxslarni belgilashga;
- tovar va xizmat turlarini tanlash va iste'molchilarga qilinadigan taklif tarkibini belgilashga, ularni ishlab chiqarish va sotishga sarflanadigan xarajatlarni baholashga;
- firma maqsadini amalga oshirish uchun mavjud kadrlar salohiyatining hamda mehnat motivatsiyasining talab darajada ekanligini baholashga;
- bozorni o'rganish, reklama, sotishni rag'batlantirish, narx-navo, sotish shaxobchalari va hokazolar bo'yicha firma marketingi faoliyati tarkibini aniqlashga;
- firma maqsadini amalga oshirishda mavjud moliyaviy va moddiy resurslarning muvofiqligini baholashga;
- biznes-rejanibajarishga xalaqit beruvchi, ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar, to'g'anoqlarni oldindan ko'ra bilishga yordam beradi.

Biznes-rejani nazarga olmagan tadbirkor kutilmagan noxushliklarga duch kelishi tabiiy. Bu noxushliklar nafaqat tadbirkorning o'ziga, shu bilan birga uning boshlagan yoki yurgizayotgan faoliyatiga qattiq zarba berishi mumkin. Shu sababli vaqtni ayamasdan biznes-rejani tuzishga (uni tuzishga 200 odam-soatgacha vaqt

talab qilinadi), so'ngra faoliyatni boshlashga jazm etmoq zarur. Hattoki bozorda o'zgaruvchanlik intensiv bo'lgan hollarda ham uni tuzishdan voz kechmaslik darkor.

Firma faoliyatini biznes-reja vositasida rejalashtirish quyidagi afzalliklarga ega:

- firma rahbarlarini firma istiqboli bilan shug'ullanishga majbur qiladi;
- firma maqsadini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni aniq muvofiqlashtirishga imkon beradi;
- firma faoliyatini nazorat qilish ko'rsatkichlarini o'rnatishga yordam beradi;
- firma rahbari va ma'sul xodimlar majburiyatlarini yanada aniqroq o'rnatishga, ularning javobgarligini oshirishga majbur qiladi;
- firmani bozor vaziyatiga har doim tayyorlab boradi.

Qisqasi, biznes-reja tadbirkorga mazkur faoliyat uchun pul sarflash kerakligi, bu sarf daromad olib keladimi, olingan daromad sarflangan xarajatni qoplab firma rentabelligini ta'minlay oladimi degan savollarga javob beradi.

Biznes-reja quyidagi o'ta dolzarb vazifalarni echish uchun ham zarurdir:

- mavjud va yangitdan tashkil topadigan xususiy va aktsiyador firmalarga kredit olish uchun;
- davlat korxonalarini xususiylashtirish bo'yicha takliflarni asoslash uchun;
- yangi faoliyatni boshlash va firmaning bo'lg'usi yo'nalishni aniqlash uchun;
- chetdan investorlarni jalb qilish uchun;
- qo'shma korxonalarini tashkil qilish uchun;
- buyurtmachi yoki xaridor bilan yirik shartnomani tuzish uchun;
- yangi malakali xodimlarni o'z firmangizga jalb qilish uchun;
- tovaringizni yoki xizmat turlarini chetga chiqarishni asoslash va hokazolar uchun.

Bu muammolarni echish uchun biznes-reja zarurdir va u awalgi ko'nikkan texnik-iqtisodiy asoslash kabi xujjatning o'rnini bosmog'i darkor.

Biznes-rejani menejer, tadbirkor, firma, firmalar guruhi, konsalting tashkiloti tayyorlashi mumkin. Biznes-rejani tuzish jarayoni tadbirkorlik g'oyasidan boshlanib, olingan foydani uning ishtirokchilariga taqsimlash bilan yakunlanadi.

Biznes-rejani tuzishda rahbarning shaxsan ishtiroki juda zarurdir. Shuning uchun ham ko'pgina xorijiy mamlakatlar banklari va investorlari, agar biznes-rejani boshidan oxirigacha chetdan maslahatchi yollab bajargan va rahbar faqat qo'l qo'yganini bilib qolsalar, bunday biznes-reja loyihasiga mablag' berishdan voz kechadilar.

Bu degani biznes-rejani ishlab chiqishda maslahatchilar hizmatidan foydalanmaslik kerak degani emas, aksincha, investorlar tomonidan ekspert maslahatchilarning xizmatidan biznes-rejani ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi qo'llab-quvatlanadi. Gap bu erda boshqa narsada. Biznes-rejani ishlab chiqishda korxonah rahbarining yoki tadbirkorning shaxsan o'zi ishtirok etishi shart.

Firma yangi o'zlashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni mo'ljallagan bo'lsa-yu, lekin bularni ishlab chiqarish uchun etarli quvatlarga ega bo'lmasa, u yo yangi quvatlarni yuzaga keltirish uchun sarmoyalarni jalb qilish yo'lidan borishi, yoki ishning bir qismini bajarib beradigan sheriklarni qidirib topish yo'liga kirishi mumkin. Bunday holda biznes-reja sheriklar kapitalini inobatga olgan holda tuziladi.

Biznes-rejani yangi hissadorlar, kreditorlar, biznes sohasidagi sheriklar, mablag' beruvchi xomiylar va chet el investorlarini qidirib topishda hammadan ko'p foydalaniladi. Bunday sharoitda biznes-reja qachon, kim va nima uchun degan savollarga javob olish uchun tuziladi.

Tadbirkor uchun uning biznesi hayot-mamotidir. Bank menejeri yoki chet el investori uchun tayyorlangan bu xujjatlar ular qo'lga kelib tushadigan ko'plab xujjatlarning faqat biridir. Siz bu reja bilan ularni ishontira olishingiz, o'zingizga jalb qila olishingiz va pirovardda uni qo'llab-quvvatlashingizga erisha olishingiz lozim.

Burring uchun siz tuzgan biznes-reja quyidagi talablarga javob berishi, ya'ni:

- aniqvaravon;
- qisqa va lo'nda;
- mantiqan kuchli asoslangan;

- to'g'ri va ishonchli;
- raqam va faktlar bilan o'z tasdig'ini topgan bo'lishi shart.

Tayanch iboralar	
<ul style="list-style-type: none"> • rahbar funktsiyalari • boshqarish funktsiyasi • tashkiliy funktsiyalar • umumiy funktsiyalar • aniq funktsiyalar • iqtisodiy funktsiyalar 	<ul style="list-style-type: none"> • sotsial funktsiyalar • hududiy funktsiyalar • tarmoq funktsiyalari • ijrochi funktsiyalari • reja • biznes-reja

O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

- Boshqarish funktsiyasi deganda nimani tushunasiz?
- Boshqarish funktsiyalari qanday turkumlanadi?
- Boshqarishning umumiy va aniq funktsiyalari to'g'risida nimalar deya olasiz?
- Boshqarishning iqtisodiy, sotsial, ma'naviy va tashkiliy funktsiyalari nimalardan iborat?
- Boshqarishning xududiy va tarmoq funktsiyalari to'g'risida nimalar deya olasiz?
- Strategiya nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
- Korxonada miqyosida strategiya qanday bo'lishi mumkin?
- Strategik boshqaruv deganda nimani tushunasiz?
- Strategik reja deganda nimani tushunasiz?
- Korxonada maqsadi va vazifalari strategik reja bilan qanday bog'langan?
- Strategik rejali jarayonda tashqi muhitni tahlil qilishning zaruriyati bormi?
- Strategiyani tanlash deganda nimani tushunasiz?
- Strategik muqobil nima va uning qanday turlarini bilasiz?
- Biznes-reja nima?
- Biznes-reja qanday vazifalarni bajaradi?

- Biznes-rejani tuzishda qanday talablar qo'yiladi?
- Biznes-reja qanday bo'limlardan iborat?

Biznes-reja – ma'lum vaqt oralig'ida inson hamda moddiy va moliyaviy imkoniyatlardan unumli foydalanishni hisobga olgan holda, DPMning asosiy tibbiy-iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi dasturni va tashkilotning mavjud barcha resurslarini aks ettiruvchi hujjatdir. U tashkilot faoliyatining yo'nalishi haqida ma'lumot beruvchi juda muhim manbadir. U tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va uning samaradorligini oshirish maqsadida rejalashtirilgan tadbirlarni asoslash borasidagi hisob-kitobni ham o'z ichiga olgan.

Uning aniq maqsadi - muassasaning xo'jalik–moliyaviy faoliyatini, aholining ehtiyojini va kerakli resurslarni olish imkoniyatiga ega bo'lishini hisobga olgan holda, yaqin va nisbatan uzoq kelajakni mo'ljallab rejalashtirishdir.

Sifatli tuzilgan biznes-reja quyidalarga yordam beradi - tashkilotning maqsadi va vazifalarini aniq ifodalash, shuningdek unga erishish usullarini egallashga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat tarkibi va ularning ko'rsatkichini aniqlashga; mavjud mutaxassislar, ularning mehnatini asoslovchi shartlar belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq yoki muvofiq emasligini aniqlashga; belgilangan maqsadga mavjud moliyaviy va moddiy resurslar yordamida erishish imkoniyatini baholashga; samarali tibbiy yordam ko'rsatish, aholi ishonchini oqlash, sog'lom turmush tarzini tashviq etishga yo'naltirilgan tadbirlar doirasini belgilashga belgilangan maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklar, xalaqit berishi mumkin bo'lgan «to'siqlar»ni oldindan ko'ra bilishga.

Hujjat sifatida biznes-reja titul varag'idan boshlanadi. Unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- Muassasaning nomlanishi
- Manzil va bog'lanish uchun telefon raqamlari
- Muassasa rahbarlari - bo'lim boshlig'i va menejerning ism-sharifi, ma'lumoti va ixtisosi bo'yicha toifasi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.
- Muassasa tashkil topgan sana, ko'rsatadigan faoliyat turi va tavsifi
- Biznes-reja tuzilgan oy va sana.

